

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI

**“O'smirlarda axloq me'yorlaridan chetga chiqish sabablari va uni
bartaraf etish yo'llari” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich sinf va sport tarbiyaviy
ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs
talabasi **Raimov SHuxrat**_____

ILMIY RAHBAR:

p.f.n. Bozorova M.Q._____

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi “ ____ ” _____2013 yil

TERMIZ – 2013

Reja

Kirish.

I BOB. Pedagogik – psixologik adabiyotlarda ijtimoiy axloq me'yorlari to'g'risida.

I.1. Axloq va axloq me'yorlari to'g'risida mutafakkirlari qarashlari.

I.2. O'smir yoshlarning axloq me'yorlari to'g'risidagi tushunchalarining mavjudlik xolati.

II BOB. O'smirlarda axloq me'yorlaridan chetga chiqishni bartaraf etishning shakl va usullari.

II.1. O'smirlarda axloq me'yorlaridan chetga chiqishining sabablari.

II.2 O'smir yoshdagilarning me'yordan og'ish xolatlarini bartaraf etishning samarali usullar.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi sharofati bilan yana axloqshunoslik yangi jamiyatda tobora o'z yuksak mavqeyini egallab bormoqda.

Shu o'rinda Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning quyidagi qimmatli fikrlarini keltirish joiz: «Aslini olganda, axloq - ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalalikdangina iborat emas. Axloq - bu, avvalo, insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani».

Bu fikrlar, bir tomondan, eski tuzumdan qolgan axloqsizlik ko'rinishlariga loqayd qarovchilarga va axloqshunoslikni yengil-yelpi, ikkinchi darajali fan sifatida tushunuvchilarga adolatli zarba bo'lsa, ikkinchi tomondan, axloqning yangi jamiyatimizdagi ulkan mavqeyini hamda axloqshunoslikning jiddiy nazariy tadqiqotlarga suyanishi kerakligini ta'kidlaydi. Zero, hozirgi sharoitda totalitar tuzum taqiqi yoxud ta'qibiga uchragan milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar hamda qadimiy urf-odatlarimiz, an'analarimiz yangi zamon ma'naviy qadriyatlarini yaratishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Chunonchi, axloqiy tafakkurning ilk bor Qadimgi Sharqda vujudga kelganligi, Somir (Shumer), bobilon, Qadimgi Misr, Qadimgi Turon-Eron, Qadimgi Hindistonda dastlabki axloqiy g'oyalarning paydo bo'lganligi ta'kidlanadi; Qadimgi Yunon va Qadimgi Rumo mutafakkirlari yaratgan axloq nazariyalariga, O'rta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida ilgari surilgan axloqiy qarashlarga, ayniqsa Temur va Temuriylar davri axloqshunosligiga alohida e'tibor beriladi; ayni paytda Yangi davr axloq falsafasi, Sharq va G'arb axloqshunoslari nazariyalarining o'zaro aloqalari hamda bir-biriga ta'siri, ularning umumbashariy axloqiy qadriyatlarning qaror topishida muhim ahamiyat kasb etganligi to'g'risidagi fikrlarga, ilmiy xulosalarga keng o'rin beriladi; shuningdek, Turkiston ma'rifatchi-jadidlari axloqiy qarashlari alohida tahlildan o'tkaziladi.

Axloqning ma'naviyat tizimidagi o'rnini, ixtiyor erkinligi muammosi, axloq tuzilmasi to'g'risidagi, axloqshunoslikning asosiy mezoniy tushunchalari, axloqiy tamoyillar hamda me'yorlarga doir fikr va mulohazalar bayon etiladi; ba'zi bir asosiy tushunchalar, tamoyillar birinchi marta ilmiy iste'molga kiritiladi, nazariy asoslanadi; axloq falsafasining o'ziga xos talqini beriladi.

Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari hamda shaxs axloqiy madaniyati haqidagi mulohazalar qo'llanmaning so'nggi qismini tashkil etadi. Erkin fuqarolik jamiyati va uni barpo etishning axloqiy asoslari, unda mahallaning o'ziga xos roli masalalari ilk bora ko'tariladi; shaxs va jamiyat axloqiy madaniyati, zamonaviy axloqiy tarbiya, uning yo'llari va vositalari haqidagi mulohazalar o'rtaga tashlanadi; kelajagi buyuk Vatanimiz farzandi - erkin jamiyat fuqarosining axloqiy qiyofasi ta'riflanadi.

Yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitet va faol grajdanlik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi va hamkorligida yuzaga kelgan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" kabi bebaho hujjatlari o'quvchi shaxsi va pedagogik maxorat borasida ham qimmatli qimmatli fikr mulohazalarga keng o'rin berilgan Buyuk O'zbekistonimizning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning salohiyatiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Chunki o'qituvchining kasbiy madaniyati, pedagogik mahorati tufayli o'quvchi fan asoslarini puhta egallaydi. Buning uchun o'qituvchida bilim yetarli bo'libgina qolmay yetkazib berish uchun ma'no-mazmunga boy millatning qadriyatlaridan kelib chiqqan holda takrorlanmas so'z zahirasi albatta hikmatli so'z matal-maqollardan olgan nutq bo'lishi kerak. O'quvchi shaxsi o'quvchining ravon nutqini anglay manaviy jihatdan rivojlanadi. Insoniyat erishgan boy qadriyatlarga

suyangan holda kamol topadi. Yosh avlodni tarbiyalash, ularda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish va kamolga yetkazish muammolari doimo hukumat diqqat markazida turadi. Ma'naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy mukammallikni mujassamlashtirgan, har tomonlama kamol topgan, ijtimoiy jihatdan faol shaxsni shakllantirish borasida sobitqadamlik bilan ish olib borilmoqda.

Bobokalonlarimiz bolani har tomonlama uyg'un rivojlantirishga katta e'tibor qaratishgan. Shu bois respublikasmizda sog'lom avlodni tarbiyalash maqsadida bola tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'tarish va unga vatanparvar, mehr-muhabbatli, insonparvar qilib tarbiyalashni maktabgacha yoshidayoq, boshlash va uni to'xtovsiz davom ettirish maktab, oila, mahalla jamoat tashkilotlari e'tiboridan chetga qolmasligi ta'kidlanmoqda. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ilk yoshidanoq bobolar merosiga tayangan holda har tomonlama rivojlantirishni asosiy vazifalardan deb hisoblaymiz.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni: yaxlit odobli shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Axloqiy tarbiyalangan shaxsda barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi. Axloqiy tushunchalarni turli yosh guruhlarida shakllantirish darajasi turlichadir. Bolalar o'zlashtiriyotgan axloqiy his-tuyg'ular, kechinmalar ma'naviy e'tiqodni shakllantirishning muhim sharoitlaridan biridir. Axloqiy his-tuyg'u insonning jamiyatga, odamlarga, o'ziga nisbatan emotsional munosabatini bildiradi. Bu odamlar o'rtasidagi muomala jarayonida vujudga keladi va rivojlanadi. His- tuyg'ilar axloqiy bilimlar va etiqodlari bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash alohida ajralib qolgan jamiyat emas, bu tushunchalar inson ehtiyojlari unung bilim va kechinmalarini uning sezgisi asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Bola shaxsini tarbiyalashda pedagogik ta'sir ko'rsatish usul, uslublarning turli yo'llarini ishlab chiqish zarurdir pedagoglar axloqiy his - tuyg'ularning tarbiyalashga katta e'tibor qartishda ularning fikricha, yaxshi his-tuyg'ularning

ildizi bolalikdan boshlanishi kerak. Odamiylk, mehribonlik, hamkorlik ittifoq hayrixohlik, mehnatda tashvishlarda atrofdagi dunyo go'zalligi haqida g'amxo'rlik qilish hayajonlanish jarayonida vujudga keladi. Axloqiy odatlar axloqiy e'tiqodlar his –tuyg'ular bilan bir qatorda hulq -atvorning ichki reguliyatorlari tizimiga kiradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi tadqiqot ishi mavzusini “ **O'smirlarda axloq me'yorlaridan chetga chiqish sabablari va uni bartaraf etish yo'llari** ” deb tanlashga asos bo'ldi.

Har bir millatda bo'lgani o'zbek xalqi ham axloq va axloqiy tarbiya masalalari turli xil yo'nalishda tadqiq etib kelganlar S.Ochil, X.Sultonov, Bobomirzaev, J.Tulenov kabi faylasuflar jamiyat axloqining falsafiy jihatlarini faragan bo'lsalar.

M.G.Davletkin, B.Qodirov, M.Abdullajonova, B.Umarov, M.Haydarov, H.Temurovlar ahloqiy tuyg'ularini psixologik aspektini yoritib berganlar.

Pedagog olimlardan Z.Mirtursunov, M.Ochilov, S.Temurova, S.Nurmatov, K.Xoshimov, D.Ro'ziboeva, O.Musurmonova o'quvchi yoshlarda oilada axloqiy tarbiya va uni shakllanishga turli xil vositalarining imkoniyatlari mavzusida tadqiqotlar olib borilgan.

Zamonaviy shiddatkor davrimiz o'smir yoshlarining jamiyat axloq me'yorlariga munosabati masalasini N.Egamberdieva, E.Doniyorov, A.Soxibov, D.Sharpova, kabi tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etib kelinayotganligi muammoning o'rganilish ehtiyoji mavjudligidan dalolat beradi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi o'smir yoshlarda turli xil madaniyaning kirib kelishi natijasida ularning axloqiy tarbiyalanganlik darajasidagi nuqsonli tomonlarini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va uni bartarf etish uchun turli xil tarbiyaviy metodlar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari: malakaviy ishimizdagi belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni belgilab oldik.

1. O'smir yoshlarning “axloq me'yorlari” to'g'risidagi tushunchalarni aniqlash;

2. Har bir ta'lim maskanidagi o'smir yoshlar axloqiga bo'lgan munosabatlarni o'rganish;
3. Oilada ota-onaning zamoaviy yoshlarga bo'lgan munosabatini o'rganish;
4. Milliy axloq me'yorlarini targ'ib qiluvchi turli xil mavzudagi uchrashuvlar, suhbatlar rejalarini ishlab chiqib, amaliy hayotga tadbiq etish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti 8-9 sinf maktab o'quvchilarining turli xil millat madaniyati elementlari va milliy axloq me'yorlariga bo'lgan munosabatlari jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti o'smir yoshlarning axloq me'yorlaridan og'ishmasligiga qaratilgan suhbat tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi metodlar vositalar majmuasi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari, axloqiy ong va axloq to'g'risidagi qoidalar majmuasi, mutafakkirlarning axloq va axloqiylik to'g'risidagi ta'limotlari, O'zbekiston Respublikasining Axloq kodekslari, milliy –ma'naviy tiklanish to'g'risidagi chora tadbirlar tashkil etdi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi: ish kirish, 2 bob, 4 bo'lim, umumiy xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami () sahifani tashkil qiladi.

I-BOB. PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA IJTIMOIIY AXLOQ ME'YORLARI TO'G'RISIDA.

I.1. Axloq va axloq me'yorlari to'g'risida mutafakkirlari qarashlari.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrimizning eng dolzarb vazifalaridan biri davlatimiz va jamiyatimiz uchun xizmat qiladigan yetuk, sog'lom, har tomonlama rivojlangan bolalarni tarbiyalashdan iboratdir.

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq sog'lom avlod tarbiyasi ustuvor yo'nalish deb belgilandi. Sog'lom avlodni tarbiyalashda bu yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, ma'naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Chunki, xalqimizning aqidasi ko'ra «Insonning kuchi tarbiyadadir». Shu jihatdan qaraganda O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham o'zining boy tarixiy, ma'naviy-madaniy merosi, ming yillar davomida tarkib topgan tarbiya amallari, an'analari, axloq-odob qoidalari xazinasiga egadir. Ana shu xalqning buyuk mutafakkirlari komil inson xususida, uning axloqi to'g'risida dunyoga mashhur buyuk mutafakkirlari komil inson xususida, uning axloqi to'g'risida dunyoga mashhur bo'lgan durdona asarlar yozib qoldirdilar, maktabgacha ta'lim muassaslaridanoq bobolarimiz qoldirgan buyuk merosdan foydalanish, tarbiya metodlarini qo'llash, ularni bolalar ongiga singdirish muhim ahamiyatga egadir.

O'rta Osiyo qomusiy olimlarining faoliyatidagi o'zig'a xoslik, ya'ni doimiy ilm bilan mashg'ul bo'lish, bilimga chanqoqlik ularning pedagogik qarashlarining mazmunida o'z aksini topadi.

Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulutbek kabi olimlar o'z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarini o'sib kelayotgan avlodga qaratish g'oyasini ilgari surishgan va buni tadbiq etishgan. Bu, avvalambor, ular ta'limning maqsadini hayotga tayyorlash, axloqiy me'yor va qoidalar, kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo'lishda, deb bilganliklarida namoyon bo'lgan.

Mashhur olim **Al-Xoraamiy** (783 — 850 y.) asarlari yorqin didaktik tavsifga egadir. U savol-javob metodi orqali bilimlar qo'lga kiritilishi, bu jarayonda shaxs boshkalar bilan munosabatlarga kirishishi va jamiyatning faol a'zosiga aylanishini ta'kidlagan.

Buyuk qomusiy olim **Abu Rayhon Beruniy** (973 — 1050 y.) ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ilmiy usullarni ishlab chiqqan. U, shuningdek, ta'lim tamoyillarini ham tasniflagan. Allomaning pedagogik qarashlarini ijtimoiy yo'naltirilishi axloqni ijtimoiy xususiyatlar va hissiyotlarning ifodasi ilm va mehnatning ahamiyati haqidagi g'oyalari hozirgacha o'z ahamiyatini saqtab qolgan.

Buyuk qomusiy olim **Abu Ali ibn Sino** (980 — 1037 y) o'z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan bo'lib, uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar mavjud. Olimning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrof-muhit ta'siri, axloqiy va mehnat tarbiyasi, muomshta san'ati, bolalarni jamoada o'qitish haqidagi g'oyalari hozir ham nihoyatda muhim hisoblanadi.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylar ta'lim muammolari bo'yicha fikrlar bildirishgan va insonning jamiyatga sermahsul xizmat kutilishi uchun o'z aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat qobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi ta'lim vazifasini alohida ajratib ko'rsatganlar. Ta'limning rivojlatiruvchi vazifasini amalga oshirish maqsadida ular quyidagi didaktik tamoyillardan foydalanishni maslahat berganlar:

—

asta-sekin tushunchalarning murakkablashuvi;

- amaliyotni tajriba bilan bog‘lash;
- qabul qila olishlik;
- ko‘rgazmalilik.

Ibn Sinoning fikricha, ijtimoiylashtirish ko‘nikmalari jamoa bo‘lib o‘qitish shaklida yaxshi shakllanadi. Buning uchun u quyidagilarga asoslanishi lozim:

1. Ta'lim oluvchilar, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidajriba, bilim, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar almashinuvini tashkil qilish.

2. Musobaqalashuv elementidan foydalanish.

3. O‘quvchining ijtimoiy-axloqiy xususiyatlarini — muomala, o‘zaro tushunish, o‘zaro yordam, do‘stlik hissini rivojlantirish.

Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy-pedagogik yo‘naltirilganligi ularning, avvalambor, hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta'lim maqsadini sharhlashlarida o‘z ifodasini topgan. Ular shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini belgilab olishini ta'minlab beruvchi eng muhim sifatlar — bu mehribonlik, yaqinlarga yordam, g‘urur, vijdon, yaxshi niyatlilik va sabr, deb hisoblaganlar.

Forobiy ijtimoiy tarbiyada o‘qituvchiga yetakchi o‘rin ajratib, uning faoliyatini — jamiyatning kelajagi unga bog‘liq bo‘lgan hukmdor faoliyatiga qiyoslaydi. Forobiy ham Ibn Sino kabi, o‘qituvchilar e'tiborini o‘quvchilarning bilimlarini hayotga tadbiq etishlariga qaratishlari lozimligiga ishora qilgan.

Qomusiy olimlar shaxsiy namunaga nihoyatda katta e'tibor berishgan hamda o‘zlari ham intiluvchanlik, yuqori ijtimoiy mavqyega erishganlik namunasi bo‘lib xizmat qilishgan. Forobiy nihoyatda mehnatsevar, irodali, kamtar, sodda bo‘lgan va doim yordamga intilgan. Forobiyning o‘quvchilarni individual-psixologik va aqliy xususiyatlariga mos keluvchi ta'limning ustuvorligi, kasb tanlash muhimligi haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega.

Tarbiyaning ijtimoiy xarakteri haqidagi g‘oyalar **Alisher Navoiyning** adabiy merosida nihoyatda aniq ifodasini topgan. Shoirning pedagogik qarashlari insonparvar tavsifga ega. Buyuk alloma inson egallashi lozim bo‘lgan barcha bilim

va kasb-hunarlar u tomonidan Vatan foydasi uchun qo'llanilishi kerakligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Alisher Navoiy, Forobiy, Ibn Sinolarning falsafiy va pedagogik konsepsiyalari keyingi davrlarning yetakchi ta'limotlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

XI — XII asrda yashab ijod qilgan Markaziy Osiyo ma'rifatparvar olimlari turli fanlar, shu jumladan, pedagogikaning rivojiga katta hissa qo'shishdi. Yusuf Xos Hojib, Burxoniddin Zarnujiy va Ahmad Yugnakiylar bolalar jamiyatda o'z o'rnini topishida bilim, ota-ona, oilaning o'rnini alohida ajratib ko'rsatadilar. Ular tarbiyaning asosiy maqsadi deb, komil insonni tarbiyalash, unga yetishish vositasi sifatida esa qatgiqqo'llik va doimiy mehnatga o'rgatishni tushunishgan. Zarnujiyning "Ta'limda o'quvchiga pandlar" kitobi, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari Markaziy Osiyoda pedagogikaga oid bo'lgan birinchi kitoblar hisoblanadi.

Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri - insonparvarlik. U insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmat, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini dastlab Ovro'pa Uyg'onish mutafakkirlari ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval Sharqda o'rta tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi «namlulu» so'zi bundan 3-4 ming yillar avvalgi Qadimgi Somir mix xatlarida uchraydi.

Umumjahoniy dinlarning hammasida ham insonparvarlik g'oyalari ustuvor hisoblanadi. Chunonchi, musulmon manoqiblarida turli variantlarda uchraydigan mashhur rivoyat bor. Rivoyat qilinishicha, Xudoga yetishgan odamning xonadoniga yemak so'rab bir kofir kiradi. Mezbong, unga musulmon bo'lsang, qorningni to'ydiraman, bo'lmasa yo'q, deydi. Kofir ko'nmay chiqib ketadi. Shunda Xudodan, nega unga taom bermading, degan nido keladi. Mezbong, u kofirlikdan kechmagani uchun shunday qildim, deb javob beradi. Shunda Tangri mezbonga

kofir bo'lsa ham, axir mening bandam-ku, inson-ku, deb tezda uni qaytarib kelib, qornini to'ydirishni buyuradi.

Demak, insonparvarlikning ibtidosi Tangridan va har bir inson boshqalarga mehr-muhabbat, muruvvat bilan munosabat qilmog'i lozim. Zero, Hadisi sharifda «Odamlarga rahmli bo'lmagan kishiga Allohning ham rahmi kelmaydi», deyiladi. Ushbu hadis so'zlariga mos misolni nasroniylikda ham uchratish mumkin. Buyuk rus faylasuf yozuvchisi F.Dostoevskiyning «Aka-uka Karamazovlar» romanida «Bir bosh piyoz» degan bob bor. Unda roman qahramonlaridan biri Grushenka tilidan shunday rivoyat keltiriladi:

Qadimda bir johil kampir bo'lgan ekan, o'libdi-yu, o'lganidan so'ng undan biror-bir yaxshilik qolmabdi; shaytonlar uni olovli ko'lga irg'itishibdi. O'ng farishta o'ylab qolibdi: qani endi kampirning biror-bir fazilatini topsa-yu, Xudoga yetkazsa! Shunda kampirning tomorqadan bir bosh piyozni yulib olib, gadoy ayolga sadaqa qilganini eslabdi-da, uni Xudoga aytibdi. Xudo shunda farishtaga: bor, o'sha bir bosh ko'k piyozni olib, uzat, agar unga osilib ko'ldan chiqsa, kampir jannatga kirsin, mayli, agar piyoz uzilib ketsa, o'sha yerda qoladi, debdi. Farishta kampirga piyozni uzatibdi va kampir osilib chiqa boshlabdi, endi qutulib chiqay deganda, qarasa, boshqa gunohkorlar ham uning ketidan chumoliday osilib ko'ldan chiqib boryapti. Badfe'l kampir ularni tepib pastga tushirishga urinib: «Senlarni emas, meni tortib chiqaryapti, piyoz senlarniki emas, meniki», debdi. Shu gaplarni aytib bo'lar-bo'lmas piyoz uzilib ketibdi va kampir hozirgacha o'sha olovli ko'lda azob chekar emish.¹

Misollardan ko'rinadiki, insonparvarlik - umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi. Shu sababli uni sho'rolar davrida sinfiylik nuqtai nazaridan soxtalashtirish muvaffaqiyatsizlikka uchradi, proletar diktaturasi va totalitar sotsialistik tuzum hamda ular ijodkorlarining insonparvarligi haqidagi afsonalar juda qisqa umr ko'rdi. Sotsializm mafkurachilarining bu boradagi sa'y-harakatlari o'sha davrlardayoq noilmiyligi, yolg'onga sug'orilganligi bilan kishilarning g'ashini keltirgan edi. Bunday insonparvarlikni xalq qabul qilmaydi. Chunki u aynan o'ta

mavhum «xalq» tushunchasiga qaratilgan, vaholanki, insonparvarlik markazida muayyan shaxs turmog'i lozim. Har bir shaxs insoniy huquqlarini ta'minlash uchun kurashish - mana, insonparvarlikning asosiy vazifasi. Bu borada umumbashariy ma'naviy qadriyatlarni ustuvor deb bilgan bizning davlatimiz ham mamlakat ichkarisida, ham dunyo miqyosida ko'zga ko'rinarli ishlar qilmoqda. Zero, biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati nafaqat insonga mehr-muhabbat va izzat-hurmat ko'rsatishni asosiy tamoyil qilib olgan, balki shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan haqiqiy insoniy shart-sharoitlarni yaratishni ham o'z oldiga oliy maqsad qilib qo'ygan.

Erkparvarlik. Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq-huquqlari himoyasida tursa, ya'ni ancha keng qamrovli va umumiy intilish bo'lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi - erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero, erksiz inson - asir, erksiz millat - qul, erksiz mamlakat - mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o'z millati, o'z Vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qo'ygan insonlar tamoyilidir.

Erkparvar inson qullikning, mutelikning har qanday ko'rinishini inkor etishi barobarida inson huquqlarining tom ma'nodagi jangchisiga ham aylanadi. Bu jangchi bir tomondan, har bir shaxsning so'z erkinligi, o'z fikrini erkin bayon qilishi, saylash huquqi, vijdon erkinligi uchun kurashadi, ikkinchi tomondan, butun-butun millatlar erki masalasini o'rtaga tashlar ekan, ma'lum ma'noda milliy ozodlik harakatlari uchun ham turtki beradi.

Odatda, erkparvar shaxslar muayyan davrning qahramonlariga aylanadilar. Zero, ular o'zgalar erki uchun o'z erkini, o'z hayotini qurbon qilishdan ham cho'chimaydilar. Buning yorqin misoli buyuk ingliz mumtoz shoiri Jorj Bayron siymosidir. U ingliz bo'laturib, o'z vatani Angliyada Irlandiya ozodligi, irlandlar erki uchun kurashdi: hayrat va nafratga uchradi, Vatanni tark etishga majbur bo'ldi. O'z yurtida erk uchun kurashish baxtidan mahrum bo'lgan shoir o'zga

vatanlar erki uchun kurashga otlandi va Italiyani Avstriya istibdodidan ozod qilish harakatining rahbarlaridan biriga aylandi. Bu haqda u shunday deb yozgan edi:

Erk uchun Vatanda qilolmasang jang,
 Sen qo'shni vatanlar erki deb kurash;
 Tut Yunon, Rumoning tug'ini tarang,
 Boshingni tika bil erk uchun sarkash!
 Ezgulik yo'lida bo'lsang qahramon,
 Sen inson erki deb kurashsang azot,
 Bir kuni, sirtmoqdan gar qolsang omon,
 Jo'mard deb alqagay seni odamzot!

Italiyadagi ozodlik harakati mag'lubiyatga uchragach, Bayron Qadim Yunonistonni Turkiya zulmidan ozod qilish uchun kurashdi. U Yunonistonda, botqoqlik yonidagi Missolungi shahrida og'ir bezgakdan vafot etdi. Uning o'limi ham istibdodga qarshi shiorga aylandi - qo'zg'olonchilar «Bayron uchun!» degan jangovar hayqiriq bilan jangga otildilar. Benazir shoir, Yunonistonning ozod qilingan qismi general-gubernatori, erksevar qo'mondon va ulug' inson xotirasiga yunon xalqi yigirma bir kun qora kiyib, motam tutdi. Hamma cherkovlarda Bayron haqqiga ibodat qilindi.

Darhaqiqat, erkparvarlik tamoyilini hayotining ma'nosi deb bilgan insonlarning ma'naviy umri boqiy, ular kelajak avlodlar uchun ideal bo'lib qoladilar.

Ayni paytda, bu tamoyil keng ijtimoiy-siyosiy ma'noda ham qo'llaniladi. Buni erkparvar davlatlar faoliyatida ko'rish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, erkparvarlik tamoyilidan bir oz bo'lsa-da, o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga, shu orqali siyosiy obro' olishga intilish hollari, afsuski, uchrab turadi. Ba'zi davlatlar tomonidan o'zga mamlakatlar ichki ishlariga aralashish uchun erkparvarlikni niqob qilib ish ko'rishga urinishlar ham yo'q emas. Biroq bunday siyosiy qallobliklar jahon jamoatchiligi tomonidan darhol ilg'ab olinadi va fosh

etiladi. Zero, erkarparvarlik eng avvalo shaffoflik darajasidagi poklikni, halollikni talab qiladi, ozginagina dog‘ni ham ko‘tara olmaydi.

Vatanparvarlik. Eng ma‘lum va mashhur tamoyil, bu - vatanparvarlik. U insonning o‘z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo‘lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko‘pincha Vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy-mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar. Aslida esa bu tamoyilning qamrovi ancha keng - u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o‘z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo‘lidagi xatti-harakatlardir. Vatan himoyasi, bu - inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Har jabhada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qayg‘u hissini tuyush, Vatan bilan g‘ururlanish, uning har bir qarich yeriga, binosining har bir g‘ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san'atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash bular hammasi vatanparvarlikdir.

Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fido-yilarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog‘liq. Zotan, ma‘lum bir mamlakat fuqarosi o‘sha mamlakatdagi asosiy etnik guruh vakili bo‘lmasligi ham mumkin. Turli shart-sharoit taqozosi bilan boshqa bir hududga, mamlakatga kelib qolib ketgan fuqarolar, o‘z tarixiy vatanidan olisda tug‘ilganlar kam emas. Ularning ko‘pchiligida «tarixiy Vatan» tushunchasi xayoliy bir qo‘msash, shirin g‘ussa, o‘tkinchi intilish tarzida ifoda topadi. Aslida esa bu - mazkur Vatanga muhabbat emas, balki o‘z ajdodlariga, olis xotiraga hurmatdan, ekzotik hissiyotlardan kelib chiqadi; haqiqiy muhabbat esa, sharoit har ikki Vatandan birini tanlashni taqozo etganda, hozir yashab turgan Vatani va vatandoshlariga nisbatangina mavjud ekani aniq-ravshan ayon bo‘ladi.

Mazkur holatni ajoyib gurji yozuvchisi Nodar Dumbadze o‘zining «Hellados» hikoyasida g‘oyatda jonli tasvirlab bergan: Suxumining Venetsian ko‘chasida Yanguli ismli yunon bola otasi bilan birga yashaydi. Uning chap

ko'ksida «Hellados» (Ellada) degan sanchma yozuv bor, u bu bilan faxr-lanib yuradi. Lekin, vaqt kelib, yunonlarga tarixiy vatanlariga qaytishga ruxsat berilganida, Yanguli ketishni istamaydi. Otasi qattiq kaltaklab, majbur qiladi. Do'sti Jamol undan nega otang bilan birga ketmoqchimassan, deb so'raganida Yanguli shunday javob beradi:

«Qandoq tushuntirsamikin... - deya gap boshladi u nihoyat. - Onam yo'q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men ko'chada, Venetsian ko'chasida katta bo'ldim... Mening Vatanim, mening Elladam bu - Suxumi, ko'cha, Chalbash...

- Bu nima bo'lmasa? - Men Yangulining ko'ragini ochib baland ovozda o'qidim: Hellados.

- Bu - naqsh, Jamol. Vatan - ichkariroqda, naqd yurakning o'zida! - Yanguli qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

O'pkam to'lib, tomog'imga achchiq bir narsa qadaldi, unga yana bir nimalar demoqchi edim-u, ammo Yanguli eshagini no'xtasidan yetaklab, hovlidan chiqib ketdi».

Otasi zo'rlab, kaltaklab kemada olib ketishiga qaramay, Yanguli o'z asl Vatanidan ketishni istamaydi, o'zini dengizga tashlab, Vatani bag'rida halok bo'ladi. Buni yozuvchi shunday tasvirlaydi:

«Oradan bir kun o'tib, Kelasuri daryosining quyilish joyida dengiz to'lqinlari bir bolaning jasadini sohilga chiqarib tashlabdi. To'g'rirog'i, uni keksa baliqchilar suvdan tortib olib, qumga yotqizishibdi. So'ng murdaning kimligini aniqlash uchun shu atrofda o'ynab yurgan bolalarni chaqirishibdi. Marhumning basharasi shu qadar dabdala bo'lib ketgan ekanki, uni hyech kim tanimabdi. Uni men tanidim. Chap to'shining ustidagi «Hellados» degan sehrli yozuvni ko'rgandan keyin tanidim. Nafasimni ichimga yutgancha sohildan, so'ng temir yo'l bo'ylab, keyin Venetsian ko'chasidan to'xtovsiz yugurib, telbalarcha uyga otilib kirdim.

- Ha, nima bo'ldi?!! - Xolamning kapalagi uchib ketdi.

- *Nina xola... Yanguli qaytib keldi...*

So'ng xolamning oldida cho'kkalab, oyoqlarini quchoqlab yig'lab yubordim...».

Demak, vatanparvarlik tamoyili xayoliy tuyg'uga emas, balki muayyan zamonga, muayyan vatandosh-insonlarga bo'lgan muhabbatga asoslangan axloqiy xatti-harakatlar jamuljamidir. Shu jihatdan qaraganda, mamlakatimizdagi barcha millatlar tengligini e'tirof etuvchi, millatidan qat'i nazar, hammamiz bir Vatan farzandlari ekanimizni ta'kidlovchi Konstitutsiyamizning ana shunday demokratik tamoyillarga asoslanishi, yuksak axloqiy zaminga egaligi e'tibor va e'zozga loyiqdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab yetishga o'rgatish, vatanparvarlik - yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish axloqshunoslikning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Millatparvarlik. Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu -millatparvarlik. U, ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatanisiz millatning bo'lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Shu o'rinda millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o'z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga intilish bo'lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan holda, o'z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo'lda, lozim bo'lsa, o'z hayotini ham fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki o'z millatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvar - milliy o'zligini anglab yetgan inson. U o'z millati bilan faxrlanadi, o'z millati bilan butun jahonning faxrlanishini istaydi. Chunonchi, Navoiy do'ppi bilan to'n kiygan o'zbekni har qanday shoh jamolidan afzal ko'radi:

Shohu toju xil'atekim, men tomosho qilg'ali

O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas.

Lekin Navoiy shu faxrlanishi, g'ururlanishi barobarida o'zgalarga kibr bilan qaragan emas, aksincha, o'zga til vakili bo'lmish Jomiyga bag'oyat hurmat-izzat ko'rsatib, unga, pirim, deb qo'l bergan.

Millatparvarlik tamoyili asosida milliy g'oya yotadi, u millatni sevish amaliyotining - millatparvarlikning ilmiy-nazariy asosi sifatida maydonga chiqadi. Milliy g'oyaning zamonaviy, biz tanlagan ko'rinishini, uning mafkuraviy jihatlarini Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov shunday ta'riflaydi: «Milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshash unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor».

Uning ikkinchi jihati esa mana bunday talqin etiladi: «Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat yo'lida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur».3

Asl millatparvar ana shunday bo'lishi kerak. Asl millatparvar insonlarning umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo'lida o'z jonini tikkan Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari minglab fidoyilarni xalqimiz hyech qachon unutmaydi.

Fidoyilik. Ma'lumki, inson muayyan mamlakat va jamiyatdagi qoidalarni, huquqiy me'yorlarni buzmay yashashi mumkin. Rasmiy-huquqiy idoralar va tuzilmalar tomonidan bunday odam rasmona, jamiyat uchun xavf tug'dirmaydigan shaxs hisoblanadi. Lekin bunday odam axloqsiz bo'lishi, huquq bilan hisoblashgan holda axloqni tan olmasligi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, u o'z mamlakatidagi jinoyat kodeksini tan olishi barobarida, qalbidagi vijdon qonunlari bilan hisoblashmaydi, jinoiy jazodan qo'rqadi-yu, vijdon azobini bilmaydi.

Shu fikrlarni endi misolda ko'raylik. Deylik, kuz kunlaridan birida O'rdadagi Anhor bo'ylab shoshib ketayotgan odam suvga cho'kayotgan, yordamga

muhtoj kishini ko'rdi. Lekin darhol o'zini suvga otib, uni qutqarmadi. Chunki birinchidan, cho'kayotgan u emas, ikkinchidan, egnidagi kostyum-shim suvga tushsa rasvo bo'ladi, uchinchidan, uning vaqti yo'q, foydali bir ish yuzasidan uchrashuvga ketyapti, to'rtinchidan, suv sovuq, shamollab qolishi mumkin, beshinchidan, axir, bu odamning cho'kishiga u sababchi emas-ku! Shunday qilib, bir odam cho'kib ketdi, ikkinchi bir odam, buni ko'ra-bila turib, o'z yo'lida davom etaverdi. Buning uchun uni qamamaydilar ham, jarimaga tutmaydilar ham, u haqda faqat, qanday beshafqat, vijdotsiz odam ekan, deb fikr bildiriladi, xolos.

Endi boshqa bir o'tkinchini tasavvur qiling: u shu zahoti o'zini suvga otib, cho'kayotgan odamni qutqardi, dastlabki yordamni ko'rsatdi va taksiga xarajat qilib uyiga qaytdi: kiyim-bosh shalabbo, kattagina foydadan qoldi, besh-olti kun shamollab, dori-darmonga ham mablag' sarfladi. Lekin u bunga achinmaydi. Voqyeani eslaganida afsuslanmaydi, balki o'z xatti-harakatidan qoniqish tuyib, jilmayib qo'yadi, hatto bu xotirlash unga ruh beradi.

Bu hodisada biz ikki xil tamoyil bilan harakat qilgan ikki kishini ko'rib turibmiz: birinchisi - xudbin, ikkinchisi - fidoyi inson. Garchand, qonun birinchi kishini xudbinligi uchun jazolamagani barobarida ikkinchi kishiga fidoyiligi uchun alohida imtiyoz bermasa-da, jamiyat, mahalla-ko'y, odamlar ularga ikki xil munosabatda bo'ladilar: xudbinlikdan ijirg'anib, nafratlanadilar, fidoyilikdan hayratlanib, minnatdorchilik bildiradilar.

Demak, fidoyi insonga boshqalar tomonidan bu qadar izzat-hurmat ko'rsatilishiga sabab shuki, u istisnoli holatlarda o'zining odatiy-kundalik hayotiy majburiyatlarini va munosabatlari darajasini ixtiyoriy ravishda oshira olish qudratiga ega bo'ladi. Fidoyi inson boshqalar manfaati yo'lida o'z qonuniy manfaatlarini, ba'zan esa hatto hayotini qurbon qilishga tayyor turadi va zarurat tug'ilganda qurbon qiladi ham; jamiyat uchun umumiy bo'lgan oliy maqsad va ideallarni deb o'zidan kechadi. Bunga Ikkinchi jahon urushi qahramoni mard o'zbek yigiti To'ychi Eryigitovning fidoyiligi yorqin misol bo'la oladi. U dushman pulemyotiga ko'ksini qalqon qilishi bilan o'nlab, balki yuzlab o'ziga o'xshash

odamlar hayotini saqlab qoldi; bu odamlar esa o'z navbatida jahonda fashizm g'alabasining xavfini kamaytira borib, oxir-oqibat yo'qqa chiqardilar; ularning zurriyotlari esa hozir ham dunyoning yangilanishi, o'zgarishi uchun, oliy maqsadlar uchun xizmat qilmoqdalar. To'ychi Eryigitovning nomi biz bilan birga, hyech qachon xalq yodidan chiqmaydi.

Shuni ham aytish kerakki, fidoyilik tamoyilining mazmuni turli tarixiy davr va ijtimoiy jarayonlarda turlicha muayyanlashadi; u ma'lum bir davrlarda ommaviylashishi yoki kamayishi mumkin. Chunonchi, mustaqillikka erishganimizdan so'ng dastlabki paytlarda o'tish davriga xos bo'lgan - fidoyilikka nisbatan xudbinlik tamoyilining kuchayganini ko'rdik. Hozirga kelib esa, aksincha, asta-sekinlik bilan jamiyatimizda fidoyilik ustuvor tamoyil maqomini egallab bormoqda; Prezident Islom Karimovning fidoyilik tamoyili mohiyatini to'la anglatadigan «Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak!» degan so'zlarini axloqiy shior qilib olgan jamiyatimiz a'zolarining il-g'or qismi tobora ko'payib bormoqda. Ana shu ko'payib borish jarayoni qancha tezlashsa, biz qurayotgan davlatning shakli-shamoyili shuncha muayyanlik kasb etadi.

Ziyolilik. Ziyolilik tamoyili hozir biz anglaydigan tushuncha ma'nosida nisbatan uzoq tarixga ega emas. U jadidchilik harakati bilan birga yuzaga keldi desak, xato qilmagan bo'lamiz. Lekin bu tamoyilning inson faoliyatidagi dastlabki unsurlari O'rta asrlar va undan keyingi davrlardagi ma'rifatparvarlar hayotida shakllanganini e'tirof etmoq lozim. Ya'ni, u insoniyat jamiyatidagi madaniy va intellektual - aqliy taraqqiyot bilan bog'liq. Shu bois uni inson paydo bo'lganidan ancha keyin vujudga kelgan axloqiy hodisa deb talqin etish maqsadga muvofiq. XX asr allomalaridan biri, buyuk olmon faylasufi, «Frankfurt maktabi»ning namoyandasi Teodor Adarno Ikkinchi jahon urushidagi genotsiddan so'ng, ziyolilik - axloqiy kategoriya, degan fikrga kelganida mutlaqo haq edi.

Ziyolilik tamoyiliga oddiy fuqarolarning munosabatida esa ikki xil yondashuv ko'zga tashlanadi. Ularning faol va ilg'or qismi, millatning o'zagini tashkil etadigan ko'pchilik odamlar ziyolilarga havas bilan qaraydilar, ziyolilarning

xatti-harakatlarini nafaqat ma'qullaydilar, balki o'z farzandlari va yaqinlariga namuna qilib ko'rsatadilar. Ammo oddiy aholilik majburiyatidan boshqa narsani bilmaydigan, tarixdan «omma» deb atalib kelinadigan ijtimoiy qatlam kishilari, ularning ma'lumotlari oliy yoki o'rtaligidan qat'i nazar, ziyolilarga istehzo bilan, «hokimiyat bilan o'ynashgan esi pastlar» deb qaraydilar. Ana shu xudbin va mahdud «omma» qaysi yerda kamayib borsa, o'sha jamiyatda taraqqiyot yuksak darajaga ko'tariladi. Zero, ziyolilik keng ma'nodagi fidoyilikdir. Shu bois mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq bizda ziyolilik tamoyilini har bir fuqaroga singdirish uchun muntazam kurash olib borilmoqda. Uni singdirish esa ma'naviyatni yuksaltirish orqali ro'yobga chiqadi. Bu kurash tepasida ma'naviyatni ustuvor soha deb e'lon qilgan Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov turibdi.

Mehnatsevarlik. Inson barcha mavjudotlar ichida xatti-harakatlarining, faoliyatlarining ko'pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mehnat ana shu xatti-harakatlarning aniq maqsadga yo'naltirilgan qismidir. To'g'ri, mehnatga o'xshash xatti-harakatlarni qaldirg'ochning in qurishida ham, polaponiga baliq tutib keltirayotgan chorloqda ham, yer kavlayotgan yumronqoziqda ham ko'rishimiz mumkin. Lekin bu xatti-harakatlar savqi tabiiyya - tabiiyyatga (instinktga) asoslangan. Inson mehnati esa, aql vositasida amalga oshadi, u o'zi, yaqinlari, o'z jamiyati va kelajak avlodning yaxshi yashashi uchun mehnat qiladi. Shu sababli mehnatni sevgan odam ijtimoiy-iqtisodiy sharoit risoladagidek yo'lga qo'yilgan jamiyatda o'z ehtiyojlarini qondirib, farovon yashashga muyassar bo'la oladi, ishyoqmas odam esa aksincha, har qanday sharoitda ham hyech qachon biri ikki bo'lmaydi. Bundan tashqari, mehnatsevar inson jamiyat a'zolari tomonidan e'zozlangani barobarida, dangasa odam ijobiy shaxs sifatida qabul qilinmaydi.

Mehnatsevarlik tamoyili mehnat jarayonida shaxsning o'z-o'zini namoyish etishiga, o'zligini ro'yobga chiqarishiga, o'zgalar bilan munosabatlar o'rnatishiga imkon yaratuvchi axloqiy fazilatdir. U insondan halollikni, intizomni, ishtiyoq va intilishni talab etadi, mehnatga nisbatan sub'ektiv tarzdagi ijobiy munosabatni taqozo qiladi.

Ma'lumki, mehnatdan maqsad - ehtiyojni qondirish. Lekin bu ehtiyojni qondirishning qay tarzda, qanday ma'naviy-ruhiy sharoitda amalga oshuvi muhim. Faqat tor manfaatparastlik nuqtai nazaridan mehnat qilish, tinimsiz tirishib-tirmashish, mehnatga pul topish vositasi sifatidagina munosabatda bo'lish, tabiiyki, kishiga ma'naviy qoniqish, huzur baxsh etmaydi: bunday «tinib-tinchimas» odamda xushomadgo'ylik, torlik, asabiylik, nolish singari holatlar ko'zga tashlanadi. O'z kasbini yoki mehnat sohasini sevib mehnat qilgan odam majburiylik emas, ixtiyoriylik asosida ish ko'radi, mehnatining natijasigina emas, balki mehnat jarayonining o'zi ham unga quvonch, qoniqish bag'ishlaydi. Zero, bunday hollarda mehnatsevarlik zahirida o'z manfaati bilan birgalikda Vatanga, xalqqa, yaqinlariga xizmat qilishdek olijanob maqsadlar yotadi; ana shunday maqsadlar insonni «chumolilik» doirasidan kenglikka va yuksaklikka olib chiqadi.

Mehnatsevarlikni tarbiyalab borishda, uni kuchaytirishda raqobat alohida ahamiyatga ega. Zero, raqobat faqat moddiy ustunlikni emas, balki ma'naviy ustunlikni ham taqozo etadi, ya'ni unda moddiylik va ma'naviylik teng ishtirok etadi. Biz o'tmishda boshdan kechirgan «sotsialistik» deb atalgan tuzum shaxs mehnatini qadrlamaslik, mehnatsevar bilan dangasani tenglashtirish - ularga bir xil umumiy haq to'lash, «hyech kimni kamsitmaslik» shiori ostida ish ko'rish singari mohiyatan inson tabiatiga zid qoidalar va me'yorlarga asoslangan edi. «Sotsialistik musobaqa»ning soxtaligi, insoniyat jamiyatiga singib keta olmaganligiga sabab ana shunda. Zero, shaxs mehnatini qadr-lash - shaxsning mehnatsevarligini, uning o'zini qadrlash demakdir. Mustaqilligimiz sharofati bilan mehnat yana erkin shaxsning o'ziga va atrofdagilarga individual munosabatiga aylandi, mohiyatan «besh qo'l barobar bo'lsin» degan tenglashtirish siyosati barham topdi. Mehnatsevarlik esa yangi jamiyatimiz kishisining, jahoniy kenglikka chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxsning sevimli va huzurbaxsh tamoyiliga aylandi.

Tinchlikparvarlik. Bu axloqiy tamoyil ham insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, tinchlikparvarlik urushning, qon to'kishning har qanday ko'rinishini inkor etadi, oddiy tinchliksevar shaxsning tinch-totuv

yashashga bo'lgan ijobiy munosabati bilangina chegaralanib qolmaydi, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashni, zarba berishni taqozo etadi. Unda tinchlik haqida chiroyli gaplar aytish, yig'inlarda ma'ruzalar qilish emas, balki faol xatti-harakat, uyushtiruvchilik, tashkilotchilik birinchi darajali zaruriy faoliyat hisoblanadi.

Tinchlikparvarlar fidoyi insonlardir. Ularning ana shu fidoyilarcha xatti-harakatlari pirovard natijada har bir inson hayotiga takrorlanmas noyob qadriyat sifatida qarashga, har bir fuqaro qadrini, har bir davlat suverenitetini, har bir millatning o'z hayot tarziga monand yashash huquqini muqaddas deb tan olinishiga olib keladi, mamlakatlararo jamoat tartibini saqlashga, avlodlar ravnaqiga, tarixiy-madaniy hamkorlikka, millatlar va turli ijtimoiy guruhlar orasida o'zaro tushunishning qaror topishiga xizmat qiladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ba'zi ulug'davlatchilik va buyukmillatchilik ruhi hukmron bo'lgan jamiyatlarda tinchlikparvarlar quvg'in qilinadilar, turmalarga tashlanadilar. Lekin ular o'z tamoyillaridan hiech qachon qaytmaydilar. Ular insoniyatni barcha bahsli masalalarni tinch yo'l bilan hal qilishga chaqiradilar, yer yuzida tinchlik o'rnatish uchun tinimsiz kurash olib boradilar. Shunday tinchlikparvar buyuk siymolardan biri sifatida zamondoshimiz, ulug' ingliz faylasufi, Nobel mukofoti sov-rindori Bertran Rassel (1812-1970) shaxsini misol qilib keltirishimiz mumkin. O'ttiz olti yoshida Qirollik Jamiyatiga a'zo bo'la olgan, har jihatdan jamiyatda obro'ga ega faylasuf tinchlikparvarlik faoliyati uchun ikki bora (dastlab Birinchi jahon urushi paytida, ikkinchi marta - AQShning Vetnamdagi bosqiniga qarshi kurash olib borganida) ingliz ma'muriyati tomonidan turmaga tashlandi. Lekin «insonparvarlik va hurfikrlilik havoriysi» (Rassel Nobel mukofoti bilan birga shunday faxrli nomni ham olgan edi) umrining so'nggigacha tinchlikparvarlik tamoyilidan chekinmadi.

Jo'mardlik. Jo'mardlik tamoyili esa Sharqda qadimdan mavjud. Ovro'pada uni altruizm nomi bilan Ogyust Kont ilmiy muomalaga kiritgan. U - kishidagi o'z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg'usidan kelib

chiqadi, mohiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. O'z manfaatidan o'zga manfaatini ustun qo'yib, «o'z og'zidagini o'zga og'ziga tutib» yashash jo'mard insonning hayot tarziga aylanadi. Bu - oddiy xayriya emas, balki muhtojlikning har qanday ko'rinishiga qarshi o'ziga xos kurashdir. Ammo bu kurash insonparvarlik, vatanparvarlikdagi singari qat'iy jamiyat yoki jamoaning axloqiy-me'yoriy talablaridan kelib chiqmaydi, u faqat va faqat xususiylik tabiatiga ega, har bir shaxsning erkin ixtiyori bilan bog'liq axloqiy tamoyil. Chunonchi, biror kishi tomonidan insonparvarlik yoki vatanparvarlik talablarini bajarmaslik boshqalarda unga nisbatan nafrat hissini uyg'otadi, jo'mardlik ko'rsatmagan odam esa bunday ma'naviy javobgarlikka tortilmaydi. Zero, jo'mardlik mohiyatan «oddiy odamlilik qobig'idan chiqib bilish», ilohiylik sifatlariga ega bo'lib borish demakdir, bu esa hammaga ham nasib etavermaydi.

Bundan tashqari, bizning milliy axloqshunosligimizda o'zbekchilik, mehmondo'stlik kabi tamoyillar mavjud. Ular millatimizning eng yaxshi an'analarga sadoqat tuyg'usidan kelib chiqadi va o'zbek kishisiga xos bag'ri kenglik, do'stga, mehmonga borini bag'ishlashdek xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

O'zbekchilik tamoyilini o'z hayot tarziga singdirib yuborgan kimsaning nomi el-yurt orasida «baraka topgur» iborasi bilan qo'shib aytiladi. Qishloq yoki mahalladagi hasharlarda, ma'rakalarda «qamishdan bel bog'lab» xizmatda turish, bemor mahalladoshi yostig'i ustida dalda berishga doim vaqt topa olish, qo'ni-qo'shnilariga haqiqiy hamsoya bo'lib yashash o'zbekchilikning asosiy unsurlaridir. Yoki mehmondo'stlikni olaylik. Milliy-mintaqaviy an'analarga asoslangan bu tamoyil ma'lum ma'noda o'zbekchilik bilan singishib ketadi. Masalan, g'arb kishisi o'zi taklif qilmagan kishini eshikdan muloyim savol-javob bilan qaytarib yuboradi, axloqiy majburiyatdan o'zini ozod deb hisoblaydi, o'zining erkinlik huquqini ustuvor sanaydi. O'zbek esa, eshikdan kelgan kishini «bir piyola choyga» taklif etadi, kirsa, juda bo'lmaganda, oldiga non-choy qo'yadi, notanish bo'lsa, tanishadi,

hol-ahvol so'raydi, millatidan qat'i nazar, unga hamdard, ko'makdosh bo'lishga intiladi va buni axloqiy majburiyat tarzida emas, bir an'anaviy odat deb izohlaydi.

Ayni paytda bu tamoyillarni suiiste'mol qilish ham hozirgi paytda tez-tez uchrab turadi. O'zi qo'l uchida kun ko'rib turgani barobarida qarz-havola bilan katta to'ylar o'tkazish, to'ylardagi isrofgarchiliklar, hatto aza oshlarini ham «kim o'zarga» tarzida berish, charlar, beshik to'yi singari marosimlarga dong chiqarish uchun ayamay mablag' sarflash, artistlarga qistirishlar, hatto boshidan pul sochishlar singari holatlar shular jumlasidan. Bunda biz fazilatning me'yor buzilishi natijasida illatga aylanganini ko'ramiz.

Lekin o'zbekchilik va mehmondo'stlikni bunday noto'g'ri tushunish sho'rolar davridan kelayotgan sarqit, o'tkinchilik tabiatiga ega bo'lgan hodisalardir. Aslida o'zbekchilik va mehmondo'stlik tamoyillari xalqimizning o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Jahonning juda ko'p xalqlari bu tamoyillar egasi bo'lmish o'zbek millatiga doimo ehtirom, havas va hayrat bilan qaraydilar.

I.2. O'smir yoshlarning axloq me'yorlari to'g'risidagi tushunchalarining mavjudlik xolati.

Inson hayotida axloqiy me'yorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda ma'lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham de-yish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ro'yobga chiqadi. Halollik, rostgo'ylik, insofilik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik singari me'yorlar ayniqsa diqqatga sazovor.

Halollik va rostgo'ylik. Avvalo shuni aytish kerakki, halollikni uning dastlabki tor diniy mazmunida - qaysi taom harom-u, qaysinisi halol, degan ma'noda tushunmaslik lozim. U allaqachon umuminsoniy-dunyoviy ma'no kasb etgan me'yorga aylangan. Halollik, rostgo'ylik - vijdon tushunchasi bilan bog'liq, insonning o'zgaga munosabati o'ziga munosabatidek sof bo'lishini talab etuvchi me'yorlardir.

O'nlab me'yorlar orasida bu ikkisiga birinchi bo'lib to'xtalishimizning sababi shundaki, mustamlakachilik davrida, ayniqsa, sho'rolar hukmronlik qilgan chorakam bir asr vaqt mobaynida yolg'on, aldov, nopoklik, haromxo'rlik, munofiqlik singari illatlar xalqimizga shu qadar ustalik bilan singdirildiki, hozirgi paytda ko'pchilik odamlar halollik va rostgo'ylik ustidan hatto kuladigan bo'lib qolganlar. So'z bilan ish birligi yo'qolgan, qog'ozdagi chiroyli gaplar hayotga to'g'ri kelmaydi. Lekin bularning hammasi, afsuski, odatiy holdek qabul qilinadi. Shu bois mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu illatlarga qarshi kurash boshlandi. Hozirgi kunda davlatimiz milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklashni, odamlarni halol, insofli, adolatli bo'lishga chaqirishni o'z ichki siyosatining muhim qismi deb bilgan holda ish tutmoqda. Zero, ko'z o'ngimizda yolg'on, aldov, ikkiyuzlamachilik nimaligini deyarli bilmaydigan jamiyatlar, millatlar gullab-yashnamoqda. Yaponiya, Olmoniya, Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya

singari mamlakatlar shular jumlasidan. Shu o‘rinda quyidagi misolni keltirib o‘tish maqsadga muvofiq.

Falsafa jamiyati a'zolari bilan muloqot-uchrashuvga kelgan bir taniqli olim va jamoat arbobi qiziq voqyeani so‘zlab bergan edi. Olimning hikoya qilishicha, Finlyan-diyada u bilan birga Rossiya Jamoat televideniesi xodimini o‘z mashinasida olib yurgan fin fuqarosi yonilg‘i qu-yish nuqtalaridan birida to‘xtab, sakson litr benzin oladi va borib egasiga shuncha benzin olganini aytib, haqini to‘laydi. Uning qancha yonilg‘i quyib olganini kuzatishni xayoliga ham keltirmagan benzokolonka xo‘jayini pulni olib, ishini davom ettiraveradi. Mashina yo‘lga tushganda, sobiq Sho‘rolar Ittifoqi hududidan kelgan mehmonlar hayratlanib so‘rashadi: «Nega xo‘jayin sizni benzin quyayotganingizda kuzatib turmadi?» U esa tushunmay yelkasini qisadi: «Nimaga kuzatib turishi kerak?» Mehmonlar tushuntirishmoqchi bo‘lishadi: «Axir, siz sakson litrga haq to‘lab, yuz litr benzin quyib olishingiz mumkin edi-ku!» U yana hayron qoladi: «Nega yuz litr olishim kerak ekan, menga faqat sakson litr zarur!». Mehmonlar yana tushuntirishga harakat qilishadi: «Siz kam pul to‘lab, ko‘p benzin olishingiz mumkin edi, nega unday qilmadingiz?» Mezbbon esa yana yelka qisadi: «Nega men kam pul to‘lashim kerak - sakson litr zarur edi, sakson litr oldim, tavba, buning nimasi tushunarsiz!», deydi. Xullas, ikki birday kishi harom yo‘l bilan ortiqcha benzin quyib olish mumkinligini Finlyandiya fuqarosiga tushuntira olmaydilar; harom va yolg‘on nimaligini bilmaydigan mezbbon bular meni kalaka qilyapti degan xayolga borib, asabiylasha boshlaganidan keyingina mehmonlar gapni boshqa yoqqa buradilar.

Qanchalik achchiq bo‘lmasin, bu - bor gap, haqiqat. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov nutqlaridan birini «Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo‘lsin» deb, boshqa bir suhbatini esa «Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin» deb atagani bejiz emas; hozirda halol, rostgo‘y, insofli, fidoyi insonlardan iborat bo‘lgan fuqarolar jamiyatini qurish - faqat axloqiy muammo

emas, balki kelajagi buyuk davlatimizning mohiyatini anglatuvchi ijtimoiy-siyosiy yangilanishdir.

Insoflilik. Aflotun haqida gap borganida, uning adolatni davlatga xos fazilat, degan fikrini keltirib o'tgan edik. Darhaqiqat, adolat mohiyatan davlatning fuqaroga, jamiyatning shaxsga nisbatan munosabati tarzida namoyon bo'ladi. Bordi-yu, o'zaro adolatli munosabatlar haqida gap ketsa, unda odatda yuksak martabadagi tarixiy shaxsning quyi martabadagi shaxsga munosabati nazarda tutiladi. Insof esa ana shu adolatning tor qamrovli xususiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. U fuqarolar, jamiyat a'zolari orasidagi o'zaro munosabatlar me'yoridir.

Insoflilik ham halollik kabi vijdon tushunchasi bilan bog'liq, ma'lum ma'noda halollikka o'xshab ketadi. Lekin bu yuzaki taassurot. Chunki halollik o'z haqi va haqqini, ya'ni moddiy va ma'naviy huquqini o'zgalarning haqi va haqqiga xiyonat qilmagan holda ajratib yashashni anglatadi. Insoflilik esa ijobiylikda halollikdan ham bir qadam olg'a tashlangan holatdir: unda kishi o'z halol haqi va haqqidan o'zganing hisobiga kechadi; «o'zga»ning sharoiti o'zinikidan nihoyatda og'ir va yomon ekanini hisobga olib, o'z qonuniy haqi va haqqini yoki ularning bir qismini ixtiyoriy ravishda o'zgaga beradi, muruvvat ko'rsatadi.

Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir xatti-harakatini olib ko'raylik: u xorijda nashr etilgan kitoblaridan biri uchun 30.000 AQSh dollari miqdorida berilgan qalam haqini to'laligicha mehribonlik uyiga o'tkazdi. Vaholanki, mazkur qalam haqi uning halol aqliy mehnati tufayli ishlab topilgan mablag', unga hych kimning da'vo qilishga haqqi yo'q. Lekin u, o'zi va oilasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli shu 30.000 dollarsiz ham risoladagidek bo'lishi mumkinligini, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari va tarbiyachilarining sharoiti esa bu darajada emasligini hisobga olib, muruvvat ko'rsatdi: o'zi yoki avlodi uchun halol jamg'arma tarzida olib qo'yishi mumkin bo'lgan mablag'dan, insoflilik ko'rsatib, ixtiyoriy tarzda kechdi.

Bu axloqiy xatti-harakatning Prezidentlik vakolati doirasiga mutlaqo aloqasi yo‘q; Islom Karimov uni xususiy kimsa, axloqli shaxs sifatida amalga oshirdi. Ana shu insof yuzasidan qilingan muruvvat esa halollikni yana bir pog‘ona yuksakka ko‘tardi. Qani endi o‘ziga to‘q odamlar, xususan, o‘rta va quyi bo‘g‘in rahbarlari ana shu namunaga iqtido qilsalar! Zero, insoflilik va muruvvatlilik axloqiy me'yorlari jamiyat yetishtirgan moddiy boyliklarni uning a'zolari o‘rtasida shaxsiy tashabbus asosida, og‘riqsiz, huquqiy holatlarni poymol qilmagan holda qayta taqsimlanishiga, jamiyatning yanada farovonlashuviga o‘ziga xos hissa qo‘shadi.

Xushfe'llilik, shirinsuxanlilik, kamtarinlik, bosiqlik singari axloqiy xatti-harakatlar me'yoriylik nuqtai nazaridan g‘oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe'l, shirinsuxan inson o‘zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojia sifatida qaramaydi, alam yoki g‘azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o‘tkazishga intilmaydi; atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o‘ziga ham, o‘zgalarga ham ko‘tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o‘tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag‘ishlaydi. Jamiyat doimo o‘shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o‘rnak olishga intiladi.

Xushfe'llilik, shirinsuxanlilik qay darajadadir ko‘proq ixtiyor bilan, kishining ma'lum bir insoniy tabiatga intilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, bosiqlik, kamtarinlik, kamsuqumlik aksincha, ko‘proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan insonning o‘z g‘azabini bosa bilishi, noroziligini barvaqt bildirmasligi; so‘zlagisi, biror-bir gap bilan o‘zini ko‘rsatgisi kelib qolganda o‘sha istakni to‘xtata olishi kuchli irodani talab qiladi. Shu bois muomalada bosiq, kamtarin, «etti o‘lchab bir kesish» tamoyili asosida ish ko‘rgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga noil bo‘ladilar.

Shunday qilib, ikki bob mobaynida qisqacha bo‘lsa-da, axloqshunoslik asosiy tushunchalarini, axloqiy tamo-yillar va me'yorlar nima ekanini, ularning shaxs hamda jamiyat axloqiy hayotida naqadar muhim o‘rin tutishini ko‘rib

chiqdik. Pirovard natijada quyidagicha xulosa chiqarish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz: agar axloqshunoslikning mezoniy tushunchalari bir-biriga bog'liq bo'lsa, axloqiy tamoyillarning bog'liqligi yanada mustahkamroq - ular biridan ikkinchisiga o'tib turish xususiyatiga ega; axloqiy me'yorlar bir-biri bilan shu darajada chambarchaski, ba'zan birini ikkinchisidan aniq ajratish qiyin, zero ular xulq va odob doirasidagi axloqiy amaliyotlardir.

Tarixdan ma'lumki har qanday jamiyatda, u jamiyat qaysi rivojlanish bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar alohida e'tiborga muhtoj odamlar mavjuddir. Bular o'z jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida chetga chiqish, og'ishga moyil bo'lgan shaxslardir. Bunday kishilar bilan tegishli, jamiyat va davlatda ularga nisbatan alohida munosabat shakllangan.

Hozirda AQSh va Yevropa davlatlarida u yoki bu og'ishlarga ega kishilarning jamiyatga integratsiyalashuvi tamoyili amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra, bu odamlar ham jamiyatning teng huquqli, biroq ba'zi bir muammo yoki cheklangan imkoniyatlarga ega a'zosi sifatida qaraladi.

Hozirda cheklangan imkoniyatli shaxslar soni butun dunyoda shu jumladan, O'zbekistonda ham sezilarli darajada ekanligi e'tiborni tortadi..

Tibbiyot, psixologiya, sotsiologiyada "me'yor"ning o'z ko'rsatgichlari, o'z me'yorlari bo'lib unga mos kelmaydigan jihatni-"og'ish", "chetga chiqish" deyiladi.

Ijtimoiy pedagogika uchun "me'yor" va "me'yordan og'ish" tushunchalari nihoyatda ahamiyatlidir. Ular bola xulq-atvori va rivojlanish jarayonini harakterlash uchun qo'llanadi.

Og'ish ham ijobiy ham salbiy harakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, bola rivojlanishida aqliy qoloqlik ham, qobiliyatlilik ham me'yordan og'ish hisoblanadi. Xulq-atvordagi jinoyatchilik, giyohvandlik va boshqa salbiy og'ishlar ham shaxsning ijtimoiy shakllanish jarayoniga, ham jamiyat rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Me'yordan chetga chiqishni shartli ravishda 4 guruhga ajratish mumkin: jismoniy, ruhiy, pedagogik va sotsiologik.

Me'yordan jismoniy og'ish inson sog'ligiga bog'liq. Sog'liqdagi og'ish yoki irsiy omillar yoki biror-bir tashqi holatlar: og'ir ekologik holat, ichimlik suvining qoniqarsiz sifati, oila hayoti darajasining pasayishi va boshqalar asosida yuzaga kelishi mumkin.

Sog'ligida va rivojlanishida og'ishga moyillarning ko'p tasniflari mavjud. Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti 1980 yilda cheklangan imkoniyatlarning uch zvenosi shkalasining britancho variantini qabul qilgan:

Bular:

- kasallik, xastalik-ruhiy yoki fiziologik funksiyalar, anatomik struktura elementlarini har qanday yo'qotish;

- cheklangan imkoniyat-inson uchun me'yor hisoblangan chegarada biron-bir faoliyatni bajarish qobiliyatini yoqotish yoki cheklab qo'yish;

- nogironlik yosh, jins yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqib insonning biron-bir faoliyatini bajarishni cheklovchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi cheklangan imkoniyat.

G'arb davlatlarida "sog'ligining cheklangan imkoniyatlariga ega shaxs" tushunchasi mavjud. Ularga ta'lim standartlarini o'zlashtirishga to'sqinlik qiluvchi jismoniy yoki ruhiy kamchiliklarga ega bolalar kiradi. Shuningdek, nuqson tushunchasi ham mavjud bo'lib, uning 4 turi ruhiy, jismoniy, murakkab va og'ir turlari mavjud.

Jismoniy nuqsonlarga-inson organizmining faoliyat yurgizishga yoki rivojlanishidagi doimiy yoki vaqtinchalik kamchiliklar, shuningdek har qanday somatik yoki yuqumli xastaliklar kiradi.

Ruhiy nuqsonlarga-insonning ruhiy rivojlanishidagi doimiy yoki vaqtinchalik kamchilik. Bularga nutq buzilishi, miya faoliyati, shuningdek, aqliy rivojlanishning buzilishlari kiradi.

Murakkab nuqson belgilangan tartibda tasdiqlangan jismoniy va ruhiy kamchiliklarni o'zida mujassam etadi.

Og'ir nuqson- shunday nuqsonki, u mavjud bo'lgan holatda davlat ta'lim standartlariga mos ravishda ta'lim olishning umuman iloji bo'lmaydi.

Bola jismoniy rivojlanishidagi og'ishlarga kasallik, ko'rish, eshitish qobiliyatlarining buzilishlari kiradi. Me'yordan ruhiy og'ishlar bolaning aqliy rivojlanishi, uning ruhiy nuqsonlariga bog'liqdir. Bu turdagi og'ishlarga ruhiy rivojlanishning to'xtab qolishi, bolalarning aqliy jihatdan ortda qolishi kiradi. Aqliy qoloqlik asab tizimining tug'ma nuqsonlari yoki jarohat asosida paydo bo'ladi. Bolalarda aqliy qoloqlik engil, o'rtacha va og'ir darajada bo'ladi.

Ruhiy og'ishlarga turli darajadagi nutq buzilishlari ham kiradi. Ruhiy og'ishlarning yana bir turi emotsional faoliyatining buzilishidir. Bu og'ish turining eng og'ir shakllari deb autizm-muloqotga ehtiyoj sezmaslik va suitsid (o'z-o'zini o'ldirish)larni keltirsa bo'ladi.

Bolalarning iqtidorliligi alohida og'ish turi hisoblanadi. Bu biror-bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlab beruvchi qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unligidir. Iqtidorlilik darajasi nafaqat qobiliyatlarga qarab balki, faoliyat mahsullari harakteriga qarab ham belgilanadi.

Pedagogik og'ishlar tushunchasi pedagogika va ijtimoiy pedagogikada hozircha kam qo'llaniladigan tushunchadir. Vaholanki, pedagogik faoliyatda pedagogik maqsadlarni amalga oshirish, shaxs rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish uchun ta'lim olayotganlar faoliyatini tartibga solganidan turli me'yorlar qo'llanmoqda. Bu ta'lim darajasini belgilaydigan standartlarga, shuningdek o'quvchi intilayotgan maqsadlarga tegishli. Bularga yana ta'lim olishda yuqori natijalarni ta'minlab beruvchi bola rivojlanishining me'yorlarini ham kiritisa bo'ladi.

So'nggi yillarda turli sabablarga ko'ra umumiy ta'lim ololmagan bolalar haqida ham fikrlar bildirilmoqda. Bunday bolalarni alohida toifaga kiritamiz. Bular maktabga bormaydigan, faqatgina boshlang'ich maktabni tugatgan, umumiy o'rta

ta'lim olmagan bolalardir. Bunday holatlarni yuzaga kelishiga olib keluvchi sabablarga darslarning qoldirish, o'qishni xoxlamaslik, oiladagi notinch vaziyatlar, pul topishga harakat qilishi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ruhiy va jismoniy rivojlanishda og'ishga ega bo'lgan bolalar uchun alohida maktablar bo'lib, u yerda ular professional mutaxassislar qo'l ostida ta'lim olishadi.

Bu bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvining asosiy muammosi ularning keyinchalik professional ta'lim olishlari bilan bog'liq.

O'z ijtimoiy rivojlanishlarining buzilib bo'lganligi sababli biror-bir kasbiy faoliyatni tanlay olmaydigan bolalarni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Bu bolalarni biron-bir ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sohasida o'zlarini sinab ko'rish xohishi yo'qligi birlashtiradi. Bu xolatda bunday og'ishni yengib o'tish uchun mutaxassisning ijtimoiy pedagogik yordami zarur.

Ijtimoiy og'ishlar "ijtimoiy me'yor" tushunchasi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy me'yor bu insonlar, ijtimoiy guruhlar faoliyati yoki xulq-atvori jamiyat rivojlanishining biror-bir bosqichida shakllangan yoki rasman o'rnatilgan qoidalari namunasidir. Aslida ijtimoiy me'yor kerakli xulq-atvor, ijtimoiy munosabatlar va faoliyatlar modeli hisoblanadi.

Bolalar uchun ijtimoiy me'yorlarning o'ziga xos xususiyati shuki, ular tarbiya omili hisoblanib, uning jarayoni ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, ijtimoiy muhitga kirish, ijtimoiy tajriba va rollarni o'zlashtirish sodir bo'ladi. Bu holatda tarbiyaning boshqarish funksiyasi eng muhim vazifani bajaradi, chunki uning vazifasi bolalar ongi va xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi omillarni kerakli tarbiyaviy effekt ta'minlanadigan darajada tashkil qilishdir.

Sotsiologik, psixologik va pedagogik adabiyotlarda deviant xulq-atvorga ega bolalar muammolari ustida tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bu borada mamlakatimizda bunday bolalarning ta'lim – tarbiyasini tashkil etish borasida e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu bolalarga yordam ko'rsatish uchun ixtisoslashgan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish shaxobchalari tashkil etilgan. Ijtimoiy xavfli xatti-harakat sodir etgan va 11 yoshga to'lgan bolalarni sud tibbiy-pedagogik komissiyasi xulosani inobatga olgan holda maxsus maktablar yoki maxsus kasbiy bilim yurtlariga jalb etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotchi M. A. Galaguzova tomonidan turli og'ish turlarining tasnifi quyidagicha tarzda berilgan bo'lib, bu xol bolalar bilan ishlashda qulaylik tug'diradi.

Jismoniy	Ruhiy	Pedagogik	ijtimoiy
-kasallik, -ko'rish qobiliyatining buzilishi, -eshitish qobiliyatining buzilishi.	-ruhiy rivojlanishning to'xtab qolishi, -aqliy qoloqlik, -nutq buzilishi, -iqtidorlilik.	-umumiy o'rta ta'lim olishdan chetga chiqish, -kasbiy ta'lim olishdan chetga chiqish.	-etimlik, -xulq-atvor me'yoridan og'ish: aroqxo'rlik; norkamaniya; taksikomaniya; foxishabozlik; daydilik va b.

Ijtimoiy pedagogning xulq-atvorida og'ishi bor bolalar bilan ish yuritishi og'ishlar profilaktikasi, muayyan me'yor va qoidalarni buzishni oldini olish, shuningdek xulq-atvorida u yoki bu og'ish aniqlangan bolalarning reabilitatsiyasiga qaratilishi talab etiladi.

Deviatsiya - jamiyatda o'rnatilgan xuquqiy, ijtimoiy, axloqiy qoida va me'yorlarga mos kelmaydigan xatti-harakat, xulq-atvorga aytiladi.

Odatda deviatsiya xodisasi va uning ko'rinishlari ko'p xollarda ularning o'smirlik davrida yuzaga keladi. Zotan, bu davr yosh davrlari ichida eng murakkabi bo'lib, uni o'tish davri deb ham yuritiladi. Darhaqiqat bu davrda o'smir hayoti va faoliyatida jiddiy o'zgarishlar, xususan anatomo-fiziologik, aqliy, ruxiy

jihatlardan rivojlanish yuz beradi. Natijada ularda hamma narsaga qiziqish xissi kuchayadi, atrof-muhitga, hayotga bo'lgan munosabatlarida sezilarli darajada o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Garchi ularda o'zligini anglash, shaxsiy dunyoqarash, turli xodisalarga, o'zgarishlarga nisbatan baho berish kabi xususiyatlar shakllana boshlansa-da, ammo hali yetarli bilim, tajribaga ega bo'lmaganliklari sababli ko'p hollarda yagona hulosaga kelishda qiyinchilik sezishadi. Bu jihatdan ular kattalarning yordamlariga muhtoj bo'lishadi.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, bu davrda bolalarda kattalar, ayniqsa, otag'onalari o'rtasida muammolar tug'ilib turadi. Zero, kattalar va ota-onalari tomonidan o'zlariga kichkina bolaga qaraganday muomalada bo'lishlari yoqmaydi. Bu esa o'rtada ziddiyatlarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Shunday ekan, bu davrdagi bolalarga kattalar xushyorlik bilan munosabatda bo'lishlari zarur.

O'smirlik davri bolalarga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan yana biri ular o'zlaricha katta yoshdagi kishilar orasidan, yoxud badiiy asarlar, filmlardan ideal topishga harakat qilishadi.

Ko'p hollarda ular idealning tashqi ko'rinishi ya'ni qiziqtiradigan, o'zini tortadigan tomonlariga o'z e'tiborlarini qaratadilar. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, ularda tasavvurga nisbatan emotsiya (xissiyot) kuchliroq bo'ladi. Demak, o'smirlarning ideal tanlash jarayoniga ham kattalar, ayniqsa ota-onalar beparvo bo'lmasliklari zarur. Chunki, o'smirlardagi deviatsiya xodisasining yuz berishida ayni hissiyot bilan bog'liq bo'lgan xususiyat sababchi bo'ladi.

Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor me'yorlaridan chetga chiqqan o'smirlarni qiyin o'smir yoki qiyin tarbiyalanadigan o'smir deyishadi. Qiyin tarbiyalanish deganda pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatish tushuniladi. O'smirning qiyin tarbiyalanishi, jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yor va qoidalarga amal qilinmasligini fanda deviatsiya hodisasi orqali o'rganiladi.

Deviatsiya ham insonga, ham uni o'rab turgan olamga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri bo'lib, ijtimoiy sohada

o'zgaruvchanlik, insonning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatini aks xulq-atvorida o'z ifodasini topadi.

Bundan kelib chiqadiki, me'yordan chetga chiqqan xulq-atvorni jamiyat rivoji va sivilizatsiyasini bola shaxsiyatining xususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida buzilishiga olib keluvchi bolaning jamiyat bilan munosabati sifatida tushunish mumkin.

Deviatsiyaning eng ommabop shakli uning shaxs qiyofasida ifodalanishi hisoblanadi.

Qiyofasida ko'rinadigan chetga chiquvchi xulq-atvor ijtimoiy dezadaptatsiya ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bolalar va o'smirlar dezadaptatsiyasi haqida gapirganda bu jarayonga mansub bo'lgan bolalar toifalarini quyidagicha izoxlash mumkin.

Bular:

- maktabga qatnamaydigan maktab yoshidagi bolalar,
- etim bolalar,
- ijtimoiy yetimlar, bolalar uylarida joylar yetishmasligi sababli ota-onalik huquqidan mahrum etilganlar bilan birga vaqtincha yashayotgan bolalar;
- giyohvand va toksin moddalar iste'mol qiluvchi bolalar,
- jinsiy intizomsiz bolalar,
- g'ayri huquqiy hatti-harakatlar sodir etgan bolalar.

Deviatsiya - deviant, delikvent va jinoiy xulq-atvor shakllarida bo'ladi.

Deviant xulq-atvor-mikro ijtimoiy munosabatlar (oilaviy, maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog'liq me'yordan og'uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Deviant xulq-atvorga o'qishdan qochish va daydilik, bolalar va o'smirlarning aroqxo'rlik, giyohvandlik va u bilan bog'liq g'ayri ijtimoiy harakatlar, jinsiy harakterdagi hatti-harakatlar, o'ziga suiqasd qilishga urinish kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Delikvent xulq-atvor deviantdan farqli ravishda bolalar va o'smirlarning takrorlanib turuvchi g'ayri ijtimoiy hatti-harakatlar sifatida harakterlanadi. Bu huquqiy me'yorlarni buzuvchi, biroq ijtimoiy xavf darajasiga ko'ra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan harakatlardir.

Delikvent xulq-atvorning quyidagi turlari mavjud:

- agressiv xulq-atvor, bunga haqoratlash, sadistik harakatlar, o't qo'yish kabilar kiradi;

- g'arazli xulq-atvor: (kichik o'g'riliklar, ta'magirlik, avtoulovlarni olib qochish va mulkiy tajovuzlar);

- giyohvand moddalarni yetishtirish va tarqatish.

Jinoiy hatti-harakat jinoiy javobgarlikka tortishga, ma'lum yoshga yetganda jinoiy ish qo'zg'ashga sabab bo'luvchi va jinoyat kodeksining muayyan moddalarida nazarda tutilgan g'ayri huquqiy hatti-harakatlar hisoblanadi. Deviationsining salbiy turlari ijtimoiy potologiya hisoblanadi. Bularga aroqxo'rlik, toksikomaniya, giyohvandlik, fohishabozlik, o'z joniga qasd qilish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni kiritish mumkin.

Voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir:

Biologik omillar. Bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anotomik xususiyatlarning mavjudligi natijasida o'z ifodasini topadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- irsiy xususiyatlar;

- aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi va boshqalar;

- organizmga psixofiziologik zo'r berish, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, turli somatik, allergik, toksik kasallanishlarga olib keluvchi, ya'ni quvvat manbalari bilan bog'liq bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar.

Psixologik omillar. Bularga bolada psixopatologiya yoki harakterining aksetkatsiyasining borligi kiradi. Bu me'yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari,

psixopatiya, nevrosteniya va bolada g'ayri adekvant reaksiyalarni paydo qiluvchi boshqa omillarda namoyon bo'ladi.

Ruhiy me'yorning eng keskin varianti hisoblanmish aksentuatsiyaga ega bolalar psixologik ta'sirlar uchun nihoyatda qaltis hisoblanadilar va ijtimoiy tibbiy reabilitatsiyaga ehtiyoj sezadilar.

Bola rivojlanishining har bir davrida shaxsiyat va harakterning ba'zi ruhiy hislatlari shakllanadi. O'smirda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: yoki u yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki ko'nikib ketadi. Agar oilada bola ota-onasi tomonidan yetarli mehr his qilmasa unda bu holatda uning himoya vositasi vazifasini begonalashuv bajaradi. Bu begonalashuv asabiy reaksiyalar, atrofdagilar bilan munosabatlarning buzilishi, emotsional sovuqlik, psixik rivojlanishning to'xtab qolishi, turli ruhiy patalogiyalarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-pedagogik omillar Maktab, oila va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'lib, uning asosida yoshlik chog'ida salbiy tajriba to'planishligi bilan bolaning erta ijtimoiylashuvidagi og'ishlarga olib keluvchi yosh, jinsiy va individual hususiyatlar yotadi. Bunday bolalar maktabda yomon o'qishadi, darslarni ko'plab qoldirishadi, uy vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qarashadi, maktab baholariga befarqliklarini bildirishadi. Bu esa ularning o'quv dezadaptatsiyasidan dalolat beradi.

Maktab o'qovchisining dezadaptatsiyasi o'z rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o'tadi:

- o'quv dekompensatsiyasi-bola bir yoki bir nechta fanlarni o'zlashtirishida qayinchiliklar paydo bo'lishi bilan harakterlanadigan holat;

- maktab dezadaptatsiyasi –o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar bilan bir qatorda o'qituvchilar, sinfdoshlar bilan nizolashishda namoyon bo'ladigan, xulq-atvor buzilishi bilan harakterlanadigan;

- ijtimoiy dezadaptatsiya-bu holatda o'qishga, maktab jamoasiga qiziqish batamom so'nadi, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga qiziqish kuchayadi;

- bo'sh vaqtni o'tkazish muhitining kriminallashuvi.

Bolaning psixo ijtimoiy rivojidadagi me'yordan chiqishning yana bir salbiy omili noxush oila hisoblanadi. Voyaga yetmagan bolalarda g'ayri ijtimoiy xulq-atvorni shakllanishiga olib keladigan oilaviy munosabatlar turlarini ajratib ko'rsatish ham muhim ahamiyatga ega. Ular:

-o'zida bir tomondan bola xohishlariga erk berish, boshqa tomondan esa bolani nizoli vaziyatlarga undashni yoki oilada ikki axloq-oila uchun yurish-turish qoidalari, jamiyat uchun umuman boshqa qoidalarni mujassam etgan tarbiyaviy munosabatlar turi;

-to'liqsiz oilada, bolalar va ota-onalarning uzoq muddat alohida yashashlari sharoitida tarbiyaviy ta'sirlarning beqaror turi;

-spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'moli, g'ayri axloqiy hayot tarzi, ota-onalarning jinoiy xulq-atvori bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar turi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Ijtimoiy tengsizlik, jamiyatning tabaqalashuvi, ishsizlik, inflyatsiya, daromad olish usullarining cheklab qo'yilishidan iborat.

Axloqiy omillar. Bir tomondan jamiyatning axloqiy darajasida qadriyatlarining yo'qolib ketishida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan esa jamiyatning deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishiga befarq qarashida o'z aksini topadi.

Ilmiy nazariy va amaliyotda deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlashning ikki asosiy: profilaktika va rehabilitatsiya shakllari mavjud.

Profilaktika-o'smirlar xulq-atvorida ijtimoiy me'yorlardan og'ishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy va davlat tadbirlarining majmuasidir.

“Profilaktika” atamasi o'zi noxush oqibatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish ma'nosini bildiradi.

Ijtimoiy og'ishlar turli sabab va holatlardan kelib chiqishini inobatga olingan holda, profilaktik chora-tadbirlarning bir nechta turlarini ko'rsatish mumkin:

-neytrallashtiruvchi,

-o'rnini to'ldiruvchi,

- ijtimoiy og‘ishlarga sabab bo‘luvchi holatlarni yuzaga kelishidan ogohlantiruvchi,

- bu holatlarni bartaraf etuvchi,

- o‘tkaziladigan profilaktika ishlarini nazorat qiluvchi.

Reabilitatsiya keng turdagi vazifalar, elementar ko‘nikmalardan tortib insonning jamiyatda to‘liq integratsiyalashuvigacha bo‘lgan masalalarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida qaralishi mumkin.

Reabilitatsiya ob’ektlari quyidagilar:

1. Ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar.

2. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar, yetim bolalar, xulq-atvorida chetga og‘ish bo‘lgan o‘smirlar.

3. Psixosomatik va nerv-psixologik sog‘ligi buzilgan va funksional og‘ishlarga ega bolalar.

- surunkali somatik kasalliklar,

- funksional buzilishlar,

- asab-ruhiy hastaliklar,

- aqliy qoloqlik,

- nogironlik.

Reabilitatsiyaning bir qancha turlari mavjud: tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy, kasbiy, maishiy.

Tibbiy reabilitatsiya bola organizmining u yoki bu yo‘qotilgan funksiyasini o‘rni to‘ldirish yoki to‘liq va qisman tiklashga qaratilgan bo‘ladi.

Kasbiy reabilitatsiya o‘smirni biror-bir kasbga o‘rgatish, u uchun yengillashtirilgan sharoitli va qisqartirilgan ish kuniga ega ish joylarini qidirishdan iborat. Maishiy reabilitatsiya o‘smir uchun me‘yorli yashash sharoitlarini yaratishga qaratiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy reabilitatsiya deganda esa o‘smir huquq va manfaatlarini himoya qilish, unga tegishli bo‘lgan moddiy mulklar, to‘lovlar bilan ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi.

Ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya-bola hayotiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega shaxsiy hislatlarni, uning jamiyat integratsiyasiga yordam beruvchi faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, ijobiy rollarni, jamiyatda yurish-turish qoidalarini o'zlashtirishi, kerakli ma'lumot olishga qaratilgan tarbiyaviy harakterdagi chora-tadbirlardir.

Deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiy pedagogik rehabilitatsiyasi rehabilitatsion markaz deb nomlanuvchi ixtisoslashgan muassasalarda amalga oshiriladi. Bu muassasalarning vazifalari:

- nazoratsizlik, daydilik profilaktikasi,
- ota-onasi aybi bilan yoki ekstrimal vaziyat tufayli qiyin hayotiy holatga tushib qolgan bolalarga tibbiy-psixologik yordam,
- ijobiy, ijtimoiy xulq-atvor, atrofdagilar bilan muomila qilish ko'nikmalarini shakllantirish,
- ota-onasi qaramog'isiz qolgan bolalarga nisbatan vasiylik funksiyalarini bajarish,
- shaxsning inqirozli ruhiy holatlarini bartaraf etishga yordam beruvchi ruhiy va pedagogik qo'llab-quvvatlanish,
- oilaga qaytib kelishga ruxsat,
- me'yori rivojlanish, ta'lim olish imkoniyati bilan ta'minlash,
- ishga joylashtirilishiga g'amxo'rlik qilishdan iborat.

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi, o'zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashashga o'rganadi.

Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri - qanday yashamoq kerak, ikkinchisi - nima qilmog'-u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosi, avvalo, ota-onaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak degani. Zero, qush inida ko'rganini qiladi: ota-ona oilada yuksak axloq namunasini ko'rsatishi lozim.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko'p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To'g'ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne'mat. Shu ma'naviy ne'mat -asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab yetkazishimiz mumkin bo'lur edi.

Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Ularning bir qismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo'lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an'anaviy tarbiya bilan o'yinchoqlar va o'yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo'llaniladi; bunda bola qizg'anchilik, g'irromlik qilmaslikka, halol bo'lishga o'yinlar yordamida da'vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televidenie, radio, qo'g'irchoq teatri, kino san'ati katta rol o'ynaydi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi - san'at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san'atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo'lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko'rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo'ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, avval aytganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: «Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Guliston», «Zarbulmasal» singari bunday mumtoz asarlar an'anaviy axloqiy

tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan-qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo‘lib qolajak.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo‘lgan yo‘li, bu - namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo‘lishi kerak. Maktabda va oliy o‘quv yurtida muallimlarning ta’lim berish usullaridan tortib, to «mayda-chuyda» xatti-harakatlarigacha o‘z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo‘ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta'minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televideniye keltirish mumkin. U deyarli barcha san'at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko‘rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag‘ishlangan muntazam ko‘rsatuvlar ham berib boriladi. O‘zbek tilidagi «Otalar so‘zi - aqlning ko‘zi», «Rivoyat», «Oqshom ertaklari» singari ko‘rsatuvlar bunga misol bo‘la oladi. Shu bois televidenie hyech qachon yengiltaklikni targ‘ib etuvchi qo‘shiqlar, salkam pornografik reklamalar, inson qalbini qattiqlashtiradigan «o‘ldir-o‘ldir»lardan iborat videofilmlar korxonasi bo‘lib qolmasligi kerak.

II-BOB. O'SMIRLARDA AXLOQ ME'YORLARIDAN CHETGA CHIQISHNI BARTARAF ETISHNING SHAKL VA USULLARI.

II.1. O'smirlarda axloq me'yorlaridan chetga chiqishining sabablari.

O'smirlik davri (11 — 14 yosh). Bu davr inson faoliyatining eng murakkab davrlaridan biridir. Mazkur uyg'un faoliyatning faollashuvi davrida organizmning barcha organlarining jadal farqli ravishda o'smir o'z xulq-atvor tamoyillariga, o'z qarashlariga amal qilishga harakat qiladi, mustaqillikka ehtiyoj tug'iladi, kattalar nasihatlarini tanqid ostiga olinadi, ularga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi.

Aynan o'smirlik davrida ichkilikka ruju qo'yishning ilk bosqichi boshlanishi mumkin. Chunki u o'smir guruhlarida sharoitida namoyon bo'ladi va shuning uchun "jamoaviy ichkilik tobeligi" tavsifga ega bo'ladi. Bu yoshdagi bola katta bo'lishga yoki kattalardek ko'rinishga harakat qiladi. Bu ham ijobiy, ham salbiy ma'noda namoyon bo'lishi mumkin.

Balog'atga yetish tendensiyasi agar axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslanmasa, ijtimoiy salbiy ma'nodagi: chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, jinsiy mas'uliyatsizlik, huquqbuzarlik namoyon bo'ladi.

O'smirlik davrida 11 yoshdan boshlab kattalar bolaga avvalgidek ta'sirlarini o'tkaza olmaydilar. Bola uchun tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish katta ahamiyat kasb eta boshlaydi. O'smirning ijtimoiy maqomi qancha past bo'lsa, uning guruhga ta'siri shuncha kam bo'ladi. Shuning uchun bu yoshda ijtimoiy pedagog faoliyatida asosiy urg'u guruh bilan ishlashga qaratiladi. Bu quyidagi faoliyat yo'napishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Ichkilikbozlik sabablari va oqibatlari profilaktikasi. Buni ichkilikbozlik bilan bog'liq mavzularda bahs-munozaralar o'tkazish orqali amalga oshirsa

bo‘ladi. Bu mashg‘ulotlar natijasida, guruhning barcha ishtirokchilari amal qiladigan qarashlar shakllanishi lozim.

Bahs-munozaradan tashqari, rasmi o‘yinlar ham o‘tkazish mumkin. Ichkilikbozlik profilaktikasiga qaratilgan bunday o‘yinlarda bolaning shaxsiy rivojlanishiga, jamoaviy muomala malakalariga o‘rganishiga erishsa bo‘ladi. Ijtimoiy pedagog o‘smirlar guruhida shakllantirish mumkin bo‘lgan asosiy ijtimoiy malakalar bu ichkilikka qarshi dalillarni aniq ilgari surish va tengdogilari bosimiga qarshi tura olish.

Ish shakllari: bahs, ekskursiya, suhbat. Bunda bolalarni qo‘rqitadigan usullardan foydalanish maqsadg‘a muvofiq emas.

2.O‘smirlarning bo‘sh vaqtini tashkillashtirish. Bo‘sh vaqtni qilish zarur. Ijtimoiy pedagog o‘smirning qiziqishlarini bilishi va uning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga yordam berishilozim.

Bu yoshning psixologik xususiyatlari tufayli bo‘sh vaqtni o‘tkazishning jamoaviy shakllarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Shuni inobatga olish lozimki, deviant xulqli bolalar, asosan, intellektual faoliyat bilan emas, balki sport bilan shug‘ullanishga qiziqishadi. Shuning uchun ularning sport seksiyalariga qatnashishlariga yanada ko‘proq sharoitlar yaratib berish lozim.

3. Ijtimoiy pedagog tomonidan o‘tkazilayotgan ichkilikka qarshi tarbiya bolada mustahkam antialkogol qarashlar sog‘lom hayot tarzining zarurligi, organizm shakllanayotgan paytda spirtli ichimlik iste'mol qilish mumkin emasligi, ichkilikbozlikning axloqsiz omil ekanligini shakllan-tirishga qaratiladi.

Maktab pedagog jamoasini ichkilikka qarshi yo‘naltirish ham ijtimoiy pedagogning vazifasi hisoblanadi. O‘smir yoshidagi o‘quvchilarning ta'lim daspuri bilan tanishish asosida ijtimoiy pedagog ichkilikka qarshi tarbiya elementlarini maktab darslari tarkibiga kiritishni ilgari surishi mumkin.

Odatda, deviatsiyalar o'smirlik davrida yuzaga keladi. O'smirlik davri yoshlik davrlari ichida eng murakkabidir. Uni "o'tish davri" ham deb atashadi, chunki rivojlanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'smirlik davrida o'smir hayoti va faoliyatida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi, bu esa o'z, navbatida, ruhiyatning qayta shakllanishiga, tengdoshlari bilan munosabatlarida yangi shakllarning paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirning ijtimoiy maqomi o'zgaradi, unga nisbatan kattalar tomonidan yanada jiddiyroq talablar qo'yila boshlaydi.

Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor me'yor-laridan chetga chiqqan o'smirlarni "tarbiyasi og'ir o'smir" deyiladi. "Tarbiyalash og'ir" deganda, pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatish tushuniladi. Tarbiyalash og'ir, qabul qilingan me'yor va qoidalarga tarbiyalanuvchi tomonidan amal qilinmasligini fanda deviatsiya (og'ish) hodisasi orqali o'rganiladi.

Deviatsiya (og'ish) ham insonga, ham uni o'rab turgan olamga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy sohada o'zg'aruvchanlik faoliyatga bog'liq bo'lib, insonning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatini aks ettiradigan xulq-atvorda o'z ifodasini topadi. Avval aytib o'tganimizdek, xulq-atvor me'yordan chetga chiqqan bo'ladi.

O'smirning me'yordagi xulq-atvori uning ijtimoiylashuvi, rivojlanishi, ehtiyojlariga mos tushuvchi mikrosotsium bilan o'zaro munosabatida aks etadi. Agar atrofdag'ilar o'smirning u yoki bu xususiyatlariga o'z vaqtida e'tibor qaratishsa, uning xulq-atvori doimo me'yorda bo'ladi. Bunday me'yordan og'ishgan xulq-atvor jamiyat tomonidan bola shaxsiyati xususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida kelib chiqadi, degan tushuncha paydo bo'ladi.

Aftidan, me'yordan og'ishgan xulq-atvor ijtimoiy dezadaptatsiya ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bolalar va o'smirlar dezadaptatsiyasi haqida gapirganda, bu jarayonga gирiftor bo'lgan bolalar toifalarini aniqlab olish lozim:

- 1.maktabga qatnamaydigan maktab yoshidagi bolalar;
- 2.yetim bolalar;

3.ijtimoiy yetimlar. Ular tuzuk ovqatlanishmaydi, jismoniy, ruhiy, jinsiy qiynoqlarga duchor bo'lishadi;

4.giyohvand va toksin moddalar iste'mol qiluvchi bolalar;

ikki hissa tez oshmoqda.

Deviatsiya deviant, delikvent va jinoiy xulq-atvordan iborat.

Deviant xulq-atvor — mikroijtimoiy munosabatlar (oilaviy, maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog'liq me'yordan og'uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni "g'ayriintizomiy" deb atasak ham bo'ladi. Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo'lishiga namoyish, agressiya, o'qishdan qochish va daydilik, bolalar va o'smirlar orasidagi aroqxo'rlik, giyohvandlik va u bilan bog'liq g'ayriijtimoiy harakatlar, jinsiy tavsifdagi g'ayriaxloqiy xatti-harakatlar, o'ziga suiqasd qilishga urinishlarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

Delikvent xulq-atvor deviantdan farqli ravishda bolalar va o'smirlarning takrorlanib turuvchi g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari sifatida tavsiflanadi. Bu harakatlar huquqiy me'yorlarni buzuvchi, biroq ijtimoiy xavf darajasiga ko'ra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan muayyan harakatlar majmuasiga aylanadi.

Delikvent xulq-atvorning quyidagi turlari mavjud:

— ag'ressiv xulq-atvor, bunga haqoratlash, sadistik harakatlar, o't qo'yish kabilar kiradi;

— g'arazli xulq-atvor: kichik o'g'riliklar, ta'magirlik, avtoulavlarga ziyon yetkazish va moddiy daromad olish maqsadidagi boshqa mulkiy tajovuzlar;

— giyohvand moddalarni yetishtirish va tarqatishda ishtirok etish.

Delikvent xulq-atvor nafaqat tashqi jihatdan, balki ichki-shaxsiy xulq-atvorda ham namoyon bo'ladi. Bunda o'smirda ichki tartibga solish tizimini nazorat qilishni susayishiga olib keluvchi qadriyatlarning o'zgarishi ro'y beradi.

Jinoiy hatti-harakat jinoiy javobgarlikka tortishga, ma'lum yoshga yetganda jinoiy ish qo'zg'ashga sabab bo'luvchi va jinoyat kodeksining muayyan moddalarida nazarda tutilgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar hisoblanadi.

Me'yordan chetga chiquvchi xulq-atvor murakkab tabiatga ega bo'lib, turli xil omillar bilan izohlanadi. Voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir:

1.Biologik omillar bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anotomik xususiyatlarning borligida o'z ifodasini topadi. Ularga irsiy xususiyatlar, aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi, organizmga psixofiziologik zo'r berish, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, turli somatik, allergik, toksik kasallanishlarga olib keluvchi, ya'ni quvvat manbalari bilan bog'liq bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar kiradi.

2.Psixologik omillar. Bularga bolada psixopatalogiya yoki xarakterining aksentuatsiyasining borligi kiradi. Bu me'yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari, psixopatiya, nevrosteniya va bolada g'ayriadekvat reaksiyalarni paydo qiluvchi boshqa omillarda namoyon bo'ladi.

Yorqin namoyon bo'lgan psixopatiyaga (tentaklik) ega bolalar psixiatrlar yordamiga muhtojlar.

Ruhiy me'yorning eng keskin varianti hisoblanmish aksentuatsiyaga ega bo'lgan bolalar psixologik ta'sirlar uchun nihoyatda qaltis hisoblanadilar va ijtimoiy-tibbiy rehabilitatsiyaga ehtiyoj sezadilar.

Bola rivojlanishining har bir davrida shaxsiyat va xarakterning ba'zi ruhiy hislatlari shakllanadi. O'smirda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: u o'zi yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki bu muhitga ko'nikib ketadi. Agar oilada bola ota-onasi tomonidan yetarli darajada mehr his qilmasa, u holda bolaning himoya vositasi vazifasini "begonalashuv" bajaradi. Bu begonalashuv asabiy reaksiyalar, atrofdagilar bilan munosabatlarning buzilishi, emotsional

sovuqlik, psixik rivojlanishning to'xtab qolishi, turli ruhiy patologiyalarda namoyon bo'ladi.

O'smirlarga xos bo'lgan rad etish, qarshi chiqish kabi oqibatida uning qiziqishlari g'arazli tavsif kasb eta boshlaydi. Bunday o'smirlarga infantilizm, ko'ngilochar hikoyalar xosdir.

3.Ijtimoiy-pedagogik omillar maktab, oila va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'lib, uning asosida bolaning yoshlik chog'ida salbiy tajriba to'plashi bilan bog'liq bo'lgan, uning erta ijtimoiylashuvdan og'ishlarga olib keluvchi yosh, jinsiy va individual xususiyatlar yotadi. Bunday bolalar, avvalambor, maktabda yomon tayyorlanishgan bo'lib, uy vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qarashadi, maktab baholariga befarqliklarini bildirishadi. Bu esa ularning o'quv dezadaptatsiyasidan dalolat beradi.

Maktab o'quvchisining dezadaptatsiyasi o'z rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o'tadi:

—o'quv dekompensatsiyasi — bola bir yoki bir nechta fanlarni o'zlashtirishida qiyinchiliklrl paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan holat;

— maktab dezadaptatsiyasi — o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar bilan bir qatorda, o'qituvchilar, sinfdoshlar bilan nizolashishda namoyon bo'ladigan, xulq-atvor buzilishi bilan tavsiflanadigan bola holati;

—ijtimoiy dezadaptatsiya — bu holatda o'qishga, maktab jamoasiga qiziqish batamom so'nadi, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga qiziqish kuchayadi;

—bo'sh vaqtni o'tkazish muhitining kriminallashuvi. Bolaning psixoiijtimoiy rivojidagi me'yordan chiqishning

yana bir muhim omili — noxush oila hisoblanadi. Voyaga yetmagan bolalarda asotsial xulq-atvorni shakllanishiga olib keladigan oilaviy munosabatlar turlarini ajratib ko'rsatish ham muhim ahamiyatga ega. Ularga quyidagilar kiradi:

— o'zida bir tomondan, bola xohishlariga erk berish, boshqa tomondan esa, bolani nizoli vaziyatlarga undashni yoki oilada ikki axloq:

oila uchun yurish-turish qoidalari, jamiyat uchun umuman boshqa qoidalarni mujassam etgan tarbiyaviy munosabatlar turi;

— to‘liqsiz oilada bolalar va ota-onalarning uzoq muddat ayri yashashlari sharoitida tarbiyaviy ta'sirlarning beqaror turi;

Shafqatsiz muomala (haqorat) deb bolaga g‘amxo‘rlik yoki vasiylik qiluvchilar tomonidan unga zarar keltiruvchi harakatlarga aytiladi.

Oila va uning ta'sirini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bolaning ruhiy-ijtimoiy rivojlanishiga aksariyat bolalarda ijtimoiylashuv shartlarining buzilishi sabab bo‘lar ekan. Ularning bir qismi deviatsiya holatiga olib boruvchi turli jismoniy va ruhiy xavflar ostida yashashadi, boshqalari esa jinoiy faoliyatlarga aralashib qolishgan.

4.Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ijtimoiy tengsizlik, jamiyatning boylar va kambag‘al sinflarga ajralishi, aholi ko‘p qismining kambag‘allashib ketishi, ishsizlik, inflyasiya, daromad olish usullarining cheklab qo‘yilishidan iborat.

5.Axloqiy omillar, bir tomondan, zamonaviy jamiyatning past axloqiy darajasida va qadriyatlarning yo‘qolib ketishida namoyon bo‘lsa, boshqa tomondan, jamiyatda deviant xulq-atvorning namoyon bo‘lishiga befarq qaralishida o‘z aksini topadi.

II.2 O'smir yoshdagilarning me'yordan og'ish xolatlarini bartaraf etishning samarali usullari.

Maxsus statistika va sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda bolalar va o'smirlar nochor ahvolda yashamoqdalar. Bu nochorlik ularning :

- psixologik va fiziologik hollarining susayishida;
- haq-xuquqlarining buzilishida;
- ularga nisbatan kuch ishlatilishda;
- alohida pedagogik faoliyat talab etiladigan hamda ijtimoiy kelib chiqishi past farzandlarining maktablardan siqib chiqarilishida;
- ishga joylashtirishda umumdavlat tizimining ish olib bormasligida;
- defekta bor, aqliy yoki jismonan zaif yoshlarni ish bilan ta'minlash muammolarining nazardan chetda qolganligida namoyon bo'lmoqda.

Bu masalalar balog'atga yetmagan bolalar orasidagi jinoyatchilik sonining ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham:

1. Bolalar va yoshlarning ijtimoiy hayotini sog'lomlashtirishga.
2. Ularning ichki ma'naviy dunyosini sog'lomlashtirishga doir chora-tadbirlar kerak bo'ladi. Buning uchun:
 - bolalar va o'smirlar rivojlanishinin buzilish sabablarini aniqlash, ularni hal etish usul va vositalarini aniqlash;
 - normal shaxsni rivojlantirishda qaratilgan tarbiya jarayonini adekvat tahlil etish.

Yordam ko'rsatishning reabilitatsion xizmati bolalar va o'smirlarga ijtimoiy — xuquqiy, psixologik, tibbiy va pedagogik jixatdan qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga qaratilgandir. Bu xizmat ularning:

- turmush sharoiti va tarbiyasini jadallashtirishga ko'mak berish orqali;

- shaxsiy mol-mulkka egalik xuquqlarini himoya qilish orqali;
- voyaga yetmagan yoki ekstremal (masalan halokatga uchragan) holatlarga tushgan, sharoiti og‘ir oila farzandlariga turli xil yordam berish orqali;
- qaltis guruhdagi oilalar va voyaga yetmaganlarga yordam berish orqali;
- kashandachilikka ruju qo‘ygan oilalarning, ekstremal holatlarning qurbon bo‘lgan yoki ota-onasiz qolgan voyaga yetmagan bolalarga turli xil yordam berish orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy xuquqiy, psixologik-tibbiy va pedagogik yordam quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Qonunga muvofiqlik;
- Insonparvarlik;
- Adolatparvarlik;
- Demokratiya;
- Tashkilotchilik va nazorat;
- Differensial va individual yondoshish;
- O‘z vaqtida yordam berish;
- Yordamning yetarli va kompleksli bo‘lishi;
- Ilmiy asoslanganlik va xizmat ko‘rsatishda xududni hisobga olish.

Xududiy tamoyildan kelib chiqqan holda xizmat ko‘rsatish ma’lum davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Xizmat tajribalarini umumlashtirish, ilmiy metodik tavsiyalar berish, xizmat ko‘rsatish xodimlarining malakasini oshirish uchun shahar, viloyat, tuman va Respublika ilmiy metodik markazlarini tashkil etiladi. Ularning eng asosiysi tuman ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tashkilotidir. Bolalar va o‘smirlarga yordam ko‘rsatishning tuman xizmat bo‘limlari quyidagi strukturadan tashkil topgan:

Psixologik — tibbiy, pedagogik yordam ko‘rsatish.

1. Kasb tanlash bo‘yicha maslahat berish bo‘limi.
2. Tashkiliy axborot bo‘limi.

3. Metodik ishlar bo'limi.
4. Oilaviy hayotning uyg'unligini ta'minlash va jinsiy tarbiya bo'limi.
5. O'qituvchi va tarbiyachilar bilan maslahat berish ishlarini olib borish bo'limi
6. Ta'lim tizimidagi xududiy rehabilitatsiya xizmati.

Bir xududda bolalar va o'smirlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati ma'lum kontingent asosida xududni inobatga olish tamoyilidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimining rehabilitatsiya xizmati — bu har bir bolaning yaxshi rivojlanishini va ijtimoiylashuvini ta'minlovchi, ularni kompleks holda rehabilitatsiya qilishga qaratilgan elitar, adaptiv tashkilotlar (maktablar), profilli (kesim) tashkilotlarning umumiy xizmatidir.

Rehabilitatsiya qilish xizmatining asosiy maqsadi bolalarning rivojlanishidagi, hulq-atvoridagi, faoliyatidagi kamchiliklarni oldini olib profilaktika qilish va qayta tiklashdan iboratdir.

Rehabilitatsiya qilish xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolala va o'smirlarning rivojlanishidagi o'zgarishlarning (deformatsiyalanish) sabablarini aniqlash;
- ularni bartaraf etishning vosita va usullarini topish;
- ta'lim—tarbiya va yashash sharoitini jadallashtirish;
- normal shaxsning shakllanishiga qaratilgan adekvat (bir hil) pedagogik jarayonni vujudga keltirish;
- maxsus rehabilitatsion xizmatga muhtoj bolalarga korreksion

rivojlantiruvchi maxsus dasturlar asosida har tomonlama yordam berish va x.k.

Pedagogikaning asosiy mezoni-tarbiya. Tarbiya - ijtimoiy hayotning abadiy va umumiy mezoni. Pedagogika bolalar tarbiyasini shaxs axloqiy hislatlarini shakllantirishning maqsadga qaratilgan jarayoni sifatida ko'rib chiqadi.

Birok, bu tarbiya jarayoni har doim ham yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Yuqorida ijtimoiy ta'lim vazifasini ko'rib-chiqib, ko'rsatdiki, bolada muayyan bir ijtimoiy bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanishi kerak ularning shakllanish jarayoni masalan, otaga, onaga bo'lgan g'amxo'r, e'tiborli, mehribon, rahmdil munosabatlarning shakllanishi bilan bog'liq. Agar qandaydir sababga ko'ra bolada ijtimoiy bilimlar shakllanmagan bo'lsa, demak munosabatlar shakllanmagan, ya'ni unga zarur bo'lgan ijtimoiylashuvda qandaydir mos hislatlari ham shakllanmagan. Shuning uchun ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonida boladagi shunday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hislatlar shakllangan bo'lishi kerak shuni o'zi ijtimoiy tarbiyani vazifasidir. Ya'ni ijtimoiy tarbiya deganda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatli bola shaxsi hislatlarining shakllanishi maqsadga qaratilgan jarayoni tushiniladi.

Tarbiya jarayoni – uni tiklash, rivojlantirish va hayotda joriy qilish, ta'lim, milliy, ma'naviy – axloqiy qadriyat va normalar bilan bevosita bog'liq. Ular xalq pedagogikasi, urf – odatlari, bayramlari, o'yinlari va boshqalarda o'z ifodasini topadi». Ma'naviyat va ma'rifat» markazi, «Ma'rifatparvarlar», «Oltin meros», «Tarixchilar», «Faylasuflar» va boshqa jamoat tashkilotlari, jamg'armalari yuqorida qo'yilgan vazifalarni hal etishga katta imkoniyatlariga egadir.

Tarbiyasi «qiyin» o'smirlar anomalligi o'qishda (o'qishi qiyin, yomon kechali, dangasa) va xulqida (intizom va tarbiyaga rioya qilmaydi) namoyon bo'ladi. «Qiyin bolalar» - jamiyatga zid yo'nalishdagi, beqaror axloqli, irodasi bo'sh, pedagogik ta'siriga doim qarshilik ko'rsatib keluvchi yoshlardir. Maktab miqyosida ular ko'p uchramaydi (bir sinfda ikki – uchtdan). Ammo sinf, maktab hayotiga, uning axloqiy muhitiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. «Qiyin» bolalar o'quvchilarning kam qismini tashkil etsa ham ular o'quv – tarbiyaviy ishlarda barqarorlikka jiddiy to'siq bo'ladilar. Ular maktabda va undan tashqarida (oilada, ko'chada, dam olish joylarida va x.k.) tartibsizlikni vujudga keltiruvchilar hisoblanadi. Shuning uchun ham «qiyin» bolalar maktabda ham, undan tashqarida ham o'qituvchi va barcha jamoat e'tiborida turishi kerak.

Tarbiyasi qiyin bo'lganlarning kelib chiqishining ijtimoiy – psixologik va psixologik – pedagogik sabab va omillarni besh guruhga ajratish mumkin:

1. Noqulay oilaviy muhit, ota – onalari o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlar.
2. O'qishga bo'lgan qiziqishning pasayib ketishi va shu munosabat bilan o'qishdan sovib ketishi (60 – 70 % voyaga yetmagan jinoyatchilar bir sinfda ikki yil o'qigan).
3. Ijtimoiy faolligi past va maktab jamoasida noqulay holat mavjud.
4. Mikro muhitning salbiy ta'siri, salbiy referent guruh ta'siri.
5. Biror faoliyat yuzasidan o'z moyilligini, qiziqishini namoyon qilish imkoniyati bo'lmasligi.

Metodlar -o'rganilayotgan ob'ektning mohiyati va qonuniyatlaridan kelib chiqib, borliqni amaliy va nazariy o'zlashtirish usullaridir ijtimoiy pedagogika esa pedagogikaning bir sohasi bo'lib, uning metodlarini pedagogikada qo'llanadigan tarbiyalash va o'qitishning an'anaviy metodlariga tayanamiz, boshqa tomondan ijtimoiy ta'lim va ijtimoiy tarbiyaning ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat bilan o'zgarib bormoqda. Yana shuni yodda tutish kerakki, buning diqqat markazimizda bola va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit turadi ijtimoiy pedagog esa bolaga muammolarni uni ijtimoiylashish jarayon hal qilishga yordam beradi . Ijtimoiy pedagogika bola bilan bevosita yoki bilvosita - oila, do'stlari, bolalar jamoasi orqali ta'sir o'tkazadi. U qandaydir qisqa muddatli vazifalarni bajarilishi yoki, bola bilan uzoq vaqt davomida ishlashi mumkin oqliqligini hisobga olamiz. Pedagog metodlar orqali bolaning ongi, xulqi his-tuyg'ulariga maqsadga muvofiq ta'sir o'tkazilish hamda uni o'rab turgan ijtimoiy muhitga ta'sir o'tkazilishi mumkin.

Metodlar - bolaning ijtimoiylashilishi va tiklashda hamkorlik qiluvchi, pozitiv ijtimoiy tajriba to'plashida yordam beruvchi ijtimoiy pedagog va bolaning o'zaro boqliq hatti-harakatlari usullaridir. Ijtimoiy pedagogika ham pedagogikaning eng yangi sohalaridan biri bo'lib, ijtimoiy - pedagogik faoliyat yangi shakllanayotgani uchun uning metodlar tizimi haqida gapirish juda erta .

Shuning uchun pedagog o'z amaliy faoliyatida pedagogika, psixologiya va ijtimoiy ishdagi metodlardan keng foydalanadi. U shakllanishi bosqichida o'z kasbiy faoliyatni bajarish uchun ijtimoiy pedagog alohida usullardan tashkil topgan metodlarni egallashi kerak. Metodlar, usullar va vositalar shu tariqa bir - birlari bilan bog'liqki, metodlar va usullar holatda vositalar rolini bajarishi mumkin.

Pedagogik faoliyatda ishontirish va mashq qilishi metodlari keng qo'llaniladi, Bu metodni qo'llashning xususiyati shundan iboratki, ijtimoiy pedagog qaysidir sabablarga ko'ra odob - axloqning umumqabul qilingan me'yorlari shakllanmagan yoki noto'g'ri shakllangan bola bilan ish olib boradilar.

Shu jamiyatga qabul qilishgan hayot me'yorlari, ular to'g'risidagi to'g'ri va aniq tasavvurning yuzaga kelishi, og'ir - oqibatda shaxsning ishonchi uning hayotdagi o'rnini shakllantiradi, bilim va ular haqidagi tasavvur bilan boqliq.

Ishontirish metodi jamiyatda qabul qilingan me'yorlarni bola xulqi va faoliyoti motivlariga ko'chirishga yordam berib, e'tiqodni shakllantiradi.

E'tiqod - bu bolaning ma'naviy bilimlarining xaqiqiyliigi va adolatliliga qat'iy ishonch bo'lib, u shaxsning ahloqiy faoliyatga va harakatiga ichki xohishdir.

E'tiqod - bu muayyan harakatning zarurligi va to'g'riligi tushuntirish va isbotlashdir. Ishontirish jarayonida ijtimoiy pedagog bolaning ongli, his-tuyg'ulari va irodasiga ta'sir o'tkazadi.

Ishontirish metodi maqsadga erishishi uchun bolalarning psixologik xususiyatlari, ularning xulqi, qiziqishlari, shaxsiy tajribasini hisobga olish zarur.

Ishontirishning asosiy qismi talab qilishdir.

Uning asosiy vazifasi shundan iboratki, bolalar oldiga vazifa qo'yilib, axloq - odob qoidalarining mazmunini ularning ongiga yetkazishi va kelgusi faoliyat mazmunini aniqlashdan iborat.

Ishontirish quyidagi pedagogikaga ma'lum bo'lgan metodlar orqali amalga oshiriladi, ya'ni hikoya, leksiya, suhbat, disput.

Hikoya va leksiya - bir kishi ijtimoiy pedagog tomonidan olib boriladigan metodning monologik formasi.

Hikoya kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi, u uzoq vaqt cho'zilmaydi, aniq va ravshan faktlarga asoslanadi.

Leksiya katta yoshdagi bolalariga qo'llaniladi, vaqti uzoqroq bo'lib, murakkab axloqiy tushunchalar (gumanium, do'stlik, yaxshilik) ni ochib beradi.

Suhbat va disput - dialogik shakldagi usul, bunda bolalarning ishlash muhim. Suhbat - bu savol - javob metodi ijtimoiy pedagog suhbatni shunday olib borishi kerakki, savollarni nafaqat u, balki bolalar ham bersin.

O'smirlar uchun disput metodi qo'llanadi, bu metod fikrlarini shakllantiradi.

Shunday qilib ishontirish - bu ma'lum axloqning to'g'riligi va zarurligini tushuntirish va isbotlash. Agar ishontirish bola ongini «programmalashtirilsa, mashq qilish bilim - ko'nikma va malakalarini shakllantiradi».

Mashq qilish ohir - oqibatda bolalarda odob - axloqni shakllantirishi uchun zarur.

Axloqiy mashqlar deganda, bolalar faoliyati va harakatlarining zarur bo'lgan ko'nikma va odat hosil bo'lib, mustahkamlanishga qadar bo'lgan ko'p marta takrorlanuvchi harakatga aytiladi. Ko'nikma va odatlarning shakllanishi quyidagi usullardan iborat: vazifani qo'yish, uning bajarilishi qoidalarini tushuntirish va talab uyg'otish, amalda qilib ko'rsatish, amalliy mashqni tashkil qilishi, talab qo'yishi, talabni bajarishni zslatish va uniig bajarilishini kuzatib borish. Malaka va odat o'rtasida ma'lum distansiya bor. Bu malakani shakllantiramiz keyin ma'lum vaqt muntazam mustahkamlab borib, uni odatga aylantiramiz.

Mashq qilishi metodining unumliligi ijtimoiy pedagogning mashq qilishini o'yin shaklida tashkil qilishi orqali oshadi.

Mashq qilishi va ishontirish metodlari o'zaro chambarchas boqliq..

Ijtimoiy pedagogik metodlar orasida muhim guruhni korreksiya metodlari tashkil qiladi, unga rag'batlantirish va jazolash metodlari kiradi.

Ijtimoiy - pedagogogika tarixi guvohlik beradiki, rag'batlantirishi va jazolash - bola shaxsiga ta'sir qilishining murakkab usullari.

Ragʻbatlantirish va jazolash bir maqsadga yoʻnaltirilgan - ya'ni ma'lum axloqiy sifatlarni bola harakterida shakllantiradi.

Lekin bu maqsad turli yoʻllar bilan amalga oshiriladi: ragʻbatlantirish harakat va holatni ma'qullaydi, jazolash notoʻgʻri harakat va faoliyatni qoralaydi, unga yomon baho beradi. Jazolash va ragʻbatlantirish bola harakati va uning oqibati orasidagi muqarrar boqliqlikni eslatadi (ragʻbatlantirish - qoniqish, jazo - norozilik).

Ijtimoiy pedagogning amaliy faoliyatida bu metodlarning turli xil turlari qoʻllanilishi mumkin.

Modomiki, bolalarda adashish va hato qilish xos ekan, qayta ishonitirish, ogohlantirish, qiziqishlarini oʻzgartirish va jazolash metodlarni qoʻllash mumkin.

Qayta ishonitirish bola ongidan notoʻgʻri tasavvurlar, hato hayotiy rejalarini, aqliy tasavvurlar va qarashlar orqali surib chiqarish. Bu ishonitirish metodining bir turidir .

Ogohlantirish ijtimoiy pedagog va pedagog faoliyatiga keng qoʻllaniladi va u bola notoʻgʻri harakatni oldini oladi va notoʻgʻri faoliyatga yoʻl qoʻymaydi.

Yuqorida koʻrib chiqilgan metodlar ijtimoiy pedagogikada alohda emas balki bir - biri bilan bogʻliq holda qoʻllaniladi.

Ijtimoilashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar.

Ijtimoiy maqom va oʻrinlar, ijtimoiy oʻzini tutish me'yor va kiradilar. Haqida koʻpgina bilimlarni oʻzlashtiradi. U shuningdek integratsiyasni va jamiyatta kirishiga yordam beraligan turli xil malaka va koʻnikmalarni egallaydi. Agar normal bolada normal bola (jismonan va psixik sogʻlom) tugʻilsa, unda uning jismoniy, psixik va ijtimoiy shakllanishi ma'lum qonunlariga koʻra sodir boʻladi. Bola avval jismoniy maqomni oʻzlashtiradi, unda yoʻlini topishga oʻrganildi: emaklash, oʻtirish, yurish, yugirish va h.

Bola yaqin kishilarini ajratadi otani, onani, aka-ukalarini oʻz ismiga egaligiga oʻrganadi, oʻnta javob berishni boshlaydi. Bolada ijtimoiy xush koʻrishlar, his tuygʻular, ijtimoiy tajriba shakllanadi. Bola ijtimoiy rivojlanishda

nuh xazinasidagi bor narsa til yordamida bola diliga o'tadi. Tilda xalq tarixi, harakteri, odatlari, an'nalari saqlanib qoladi. Tilni o'zlashtirib, bola xalq madaniyati, ijtimoiy tajriba va ijtimoiy an'analarni ham o'zlashtiradi. Eng muhim bo'lgan bola ijtimoiy rivojlanishi o'yinlarda sodir bo'ladi. O'yinlar yordamida bolalar turli xil ijtimoiy rollar bilan tanishadi. Agar bolalar jismoniy va psixik kamchiliklar bilan tug'lsa, unla ijtimoiy tajribani o'zlashtirilishi ancha murakkabdir. Agar bunday bola oddiy oilada tug'lsa bu haqida bolaning ijtimoiy tiklanishi ko'p holda bunga tayyor bo'lmagan ota-onalar zimmasiga to'lanadi. Bola o'zi uchun zarur bo'lgan muhitlaridan tashqarida, masalan, chaqaloq uyida, so'ngra bolalar uyida tarbiyalansa boshqa gap.

Bu holda ba'zi bir ijtimoiy rollarni tabiiy yo'l bilan o'zlashtirish bo'lmaydi: ota-ona, aka-uka boshqa qarindoshlar. Bunday hollarda bolalarda muayyan bir bilim va malakalarini shakllantirishga imkon beradigan, ular ijtimoiy tajribani o'zlashtirilishiga va jamiyatda ularning integratsiyasiga yordam beradigan maxsus metodiklar va texnologiyalar mavjud bo'lishi kerak. Maktabda o'qitish jarayonida bola avvalom bor akademik bilimlarini oladi. Biroq shu bilan birga ijtimoiy me'yorlarini, ko'rsatmalarini, qadriyatlarini, rollarni yanada mufaffaqiyatli o'zlashtirilishini ta'minlaydigan ma'lum bir ijtimoiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashi lozim, bola ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarini berish va ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadga qaratilgan jarayoni ijtimoiy o'qitish deb ataladi.

Ijtimoiy ta'lim, birinchidan, o'qish va o'zini rivojlantirish turli shakllarda (faqat maktab yoki professional ta'lim shaklida emas) amalga oshirilishni va odamlar butun umr buyi mustaqil o'qishni davom ettirishlarini, ikkinchidan, ta'lim berish – davlatning mutloq vazifasi emas, balki butun jamiyat bu haqida g'amho'rlik qilish va faoliyat ko'rsatishini tan olishga asoslangan. Shu sababli har qanday hamjamiyat o'z muammo hamda vazifalarini o'zini o'zi tashkil etish va

o'zini o'zi boshqarish asosida hal qilish uchun turli (muqobil va variantli) ta'lim tizimlarini tashkil etish mumkin.

Ijtimoiylashtirilgan ta'lim ikki inson o'rtasidagi muomala madaniyatini shakllantiradi. Hayotning ma'nosini va yo'nalishlarini aniqlashga, jamiyatda o'z o'rnini topishga, o'z imkoniyatlarini chamalab ko'rishga imkon beradi. Tabiiy – ilmiy ta'lim inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatni, uning tabiiy rivojlanish tamoyillari va qonuniyatlarini hamda o'zlashtirishning maqsadga muvofiq usullarini o'tkazadi. Texnologik ta'limda inson ilmiy – texnika yutuqlari, uning tamoyillari, metodlari, hozirgi zamon texnologiyasini o'zlashtiradi. Bu faqat ishda emas, balki turmushda, kommunikatsiya sohasida, madaniy hayotda ham kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining insonparvarona mohiyati shundaki, bunda ta'lim – shaxsni shakllantirish va rivojlantirish shakli va usullari sifatida qabul qilinadi.

Bu o'qitish va tarbiyalash maqsadi, mazmuni, metodi va vositalarini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. U o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida ta'lim jarayonidagi o'zaro munosabatlarida o'zgarish yasaydi, o'quvchilar faolligi va mustaqilligini oshirish o'zini o'zi kashf etishining sub'ekti bo'lib qoladi.

Ta'limni ijtimoiylashtirish o'qitish sub'ekti – o'quvchiga o'z qobiliyati va ichki imkoniyatlarini ochishga yordam beradi.

Milliy dasturning ijtimoiy mazmuni tufayli ta'limda yangi qadriyat o'z ifodasini topadi. O'quvchining shaxsiy qiziqishlari va intilishlari birinchi o'ringa chiqadi, bunda ta'lim oluvchi o'z imkoniyatlarini to'la ochishga muvaffaq bo'ladi.

Mazkur, muammoda insonparvarlik ta'limi bilan ijtimoiylashtirish o'rtasidagi munosabat muhim ahamiyatga ega. Bu faqat masalaning mohiyatini belgilash uchun emas, balki ayni vaqtda ta'limda boshlangan ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishda va hayotga joriy etish yo'llari va vositalarini aniqlashga ham muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiylashtirish insonparvarlikning mohiyatini tushunib yetishga ko'maklashadi, insonni totalitarizm asoratlaridan halos etadi, o'zligini anglatadi.

Bu maqsadga bilimsiz erishib bo'lmazligi ma'lum narsa. Ta'limni ijtimoiylashtirish insonni bu dunyoda borligini anglashga imkon beradi. U faoliyat usullarini anglash va samarali izlash, o'ziga, boshqalarga, tabiatga nisbatan uyg'un munosabatda bo'lish imkoniyatini beradi.

Ta'lim jarayonini ijtimoiylashtirish natijasida o'quvchi inson mohiyatini anglaydi. O'z hayoti davomida inson to'g'risida hosil qilingan tushunchalar asosida, shaxs xaqiqiy fuqaro bo'lib yetishadi.

Insonparvarlikka asoslangan ta'lim – ijtimoiy fanlar va yondosh fanlarning funksiyalarini kengaytiradi, ta'lim jarayonini, mutaxassis shaxsi va uning dunyoqarashi yaxlitligini ta'minlaydi.

Ta'limni insonparvarlashtirishdan kuzlangan asosiy maqsad yoshlarga tegishli bilim, ko'nikma, malaka, malaka berish, ularning insoniy dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. U bo'lajak fuqarolar tomonidan insonlar faoliyatining turli sohalarida insonparvarlik g'oyasi va qadriyatlarini amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'limda metodologik hayot tajribasiga ziddiyatli holatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chiqishni taqozo etadi:

- ijtimoiy – shaxsiy hayot tajribasiga asoslangan muntazam davom etadigan jarayon hisoblanadi;
- real vaziyatdan kelib chiqib, ziddiyatli holatlarida ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chiqishni taqozo etadi;
- mavjud amaldagi holatga doim moslashish jarayoni hisoblanadi;
- shaxslararo aloqalarni qamrab oladi;
- shaxsning shakllanish jarayonini yo'naltiradi.

Ijtimoiy ta'lim (hamjamiyat orqali ta'lim berish) – tashabbuskor guruhlar, hamjamiyatlar, jamoalar, odamlarning o'zini o'zi boshqaradigan uyushmalari hayoti va ixtiyoriy faoliyatining bir qismi sifatida muntazam, uzluksiz ta'limni tashkil etish konstepsiyasi va amaliyoti.

Ijtimoiy ta'lim konsepsiyasi quyidagi g'oyat muhim prinsiplarini o'z ichiga oladi:

- u ayrim odamlarda ham, guruxda ham o'z kuchlariga ishonishni va ularga tayanishni rivojlantirishga qaratilgan;
- u xamjamiyatda, xamjamiyat bilan birgalikda va xamjamiyat uchun ta'limning variantlilik prinsiplari asosida (ya'ni uning ob'ektiv xilma – xilligini e'tirof etish va ushbu xilma – xillikni ta'lim amaliyotida ruyobga chiqarish asosida) amalga oshirilgan uzluksiz ta'limni qo'llab – quvvatlaydi;
- u xamjamiyatdagi odamlarning muammolari va ehtiyojlariga ta'lim jarayonining boshlang'ich nuqtasi deb munosabatda bo'ladi, shu sababli tug'ilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni mustaqil hal qilish maqsadida samarali o'qitish va konkret professional trening shakllarini ahamiyatli deb beriladi;
- u ochiqdir va mushkul ahvolga tushib qolgan odamlar ehtiyojiga hamda bolalarning muammolariga ayniqsa hamdardlik bilan qaraydi, ularni pedagogika va psixologiya nuqtai nazaridan qo'llab – quvvatlashga qaratilgan maxsus maqsadlarni qo'yadi;
- u mavjud maorif tizimining xilma – xil ta'lim xizmatlarini ta'minlash borasidagi ishini to'ldiradi va xar bir odamning aynan o'ziga kerakli va ta'lim standartlari hamda tasdiqlangan o'quv rejalari bilan belgilab qo'yilganiga qaraganda ancha keng ma'lumot olishga imkon beradi.

Ijtimoiy ta'lim, birinchidan, o'qish va o'zini rivojlantirish turli shakllarda (faqat maktab yoki professional ta'lim shaklida emas) amalga oshirilishni va odamlar butun umr buyi mustaqil o'qishni davom ettirishlarini, ikkinchidan, ta'lim berish – davlatning mutloq vazifasi emas, balki butun jamiyat bu haqida g'amxo'rlik qilish va faoliyat ko'rsatishini tan olishga asoslangan. Shu sababli har qanday hamjamiyat o'z muammo hamda vazifalarini o'zini o'zi tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish asosida hal qilish uchun turli (muqobil va variantli) ta'lim tizimlarini tashkil etish mumkin.

Mamlakatimizning o'tgan yillaridagi mentalitetida ijtimoiy ta'limni tushinish mafkuraviylashtirilgan tarbiyadan, ta'limni ijtimoiy – siyosiy maqsadlar bilan chegaralab qo'yilgan tizim deb tasavvur qilishdan iborat edi. Jamiyatdagi o'zgarishlar ta'limga ham, hamjamiyatga ham, ularning o'zaro aloqasiga ham qarashlarni ancha kengaytirdi. Ta'lim va hamjamiyatlarga multimadaniy tizimlar deb qaraladigan bo'ldi, bu tizimlarda hamjamiyat individdan yuqori turib, uning rivojlanishini belgilamaydi, balki turli individlar birgalikda hayot kechiradigan, turli odamlarning birgalikdagi harakatlari amalga oshadigan jonli makon deb hisoblanadi.

Bunga guruhlar: ota – onalar (bolalar bilan birga); ta'limning konkret shakllaridan manfaatdor bo'lgan ishbilarmon odamlar va tadbirkorlar; o'z ta'limini takomillashtirishdan va o'z bilimlarini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan hamma odamlar (ya'ni, mutaxassislar va mutaxassis bo'lmaganlar) kiritilishi mumkin.

Hamjamiyatda, hamjamiyat orkali va hamjamiyat uchun shunday tushiniladigan ta'lim – jarayonlariga kiritilgan (shu jumladan majburiy o'rta ta'lim doirasida ham) odamlar aloqalari va birgalikdagi harakatlarning bevosita amal qiluvchi, dinamik ijtimoiy – madaniy va ijtimoiy ta'lim tizimidir. Bu, shuningdek, “quyidan” chiqadigan shaxsiy ta'lim ehtiyojlarining, qiziqishlarining va tashabbuslarining (xolbuki davlatga qarashli ta'lim tuzilmalari “yuqoridan” chiqadigan sotsial – ta'lim manfaatlari va maqsadlaridir) namayon bo'lish va o'zini o'zi ro'yobga chiqarish sohasi hamdir.

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.

Mamlakatdagi olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar inson va uning manfaatlari, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ta'lim muassasalari va barcha ijtimoiy institutlarda hamkorlik asosida ma'naviy axloqiy tarbiyani shakllantirishning ustuvor vazifalarini belgilab bermoqda.

Axloq va axloqiylik masalalari Sharq xalqlari turmush tarzida azal-azaldan eng muhim jarayon sifatida qaralib kelingan bo'lib, axloqli odobli insonni o'rnak na'muna qilib ko'rsatib yoshlarni shu insonga o'xshashga da'vat qilgan bo'lsalar, axloqsiz, odobsiz insondan uzoqroqda bo'lish, jamiyatda axloqsizlik orqali "yuzi qora" bo'lishini ko'rsatish orqali farzandlariga saboq berib kelishgan.

Ommaviy madaniyat hayotimizga muddat bilan o'z qulochini yoyib ham ijobiy ham salbiy ta'sirini o'tkazayotgan hozirgi davrda o'smir yoshlarda axloq me'yorlarida chetga chiqish holatining turli ko'rinishlari uchrab turibdi.

Biz o'z bitiruv ishimizni shakllantirish jarayonida o'smir yoshlarda yolg'ochilik, zo'ravonlik, ichkilikbozlik, mayda o'g'rilik, o'zga binga e'tiqod qiluvchilar narkotik moddalar iste'mol qiluvchilar, foxishabozlik, yo'lto'sarlik kabi bir qator axloqsizlar ular xulqida namoyon bo'layotganligining guvohi bo'ldik.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar rivojlanish sari dadil qadam bilan borayotgan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan yosh mustaqil mamlakatda o'smir yoshlar orasidagi axloqsizlik, axloq me'yorlaridan chetga chiqish holatlari bugungi kun uchun o'ta salbiy holat degan xulosaga keldik va ota – onalar, tarbiyachilar uchun quyidagilarni tavsiya qilamsiz:

1. Ota-onalar o'smir yoshlarning kundalik "ish kunlari" bilan muntazam xabardor bo'lishlari kerak.
2. Maktab, oila o'rtasidagi hamkorlik ishlari tartibida o'mir yoshlarning "atrofidagi do'stlari" bilan doimo qiziqib turishi lozim.
3. Maktabda doimiy ravishda o'smir yoshdagi o'quvchilarning bo'sh vaqtini rejali o'tkazishni sinf rahbarlari nazoratga olishlari kerak.

4. Yoshlarning matbuotdan, radio televideniya dan, “internet” dan qanday “ma'lumotlar” olayotganligini ota-onalar ham nazardan qochirmasliklari kerak.

Umuman olganda o'smir yoshlarning kelajagi bevosita oila, davlat va jamiyat ravnaqi bilan chambarchas bog'liq ekanligini avlod tarbiyasi uchun o'zini ma'sul hisoblaydigan har bir shaxs uchun eng mukammal darajadagi ustuvor vazifaga aylanmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi davlat tili haqida" qonun. – T.: O'zbekiston, 1989.
5. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim // Ta'lim taraqqiyoti. 7maxsus son, T., "Sharq" NMK, 1999, 480b
6. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1tom. T., O'zbekiston, 1996, 364b.
7. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., O'zbekiston, 1998, 686b.
8. Karimov I.A. Kamolot yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi 'bo'lsin. T., O'zbekiston, 2001,30b.
9. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. T., O'zbekiston, 1998, 2526 b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., O'zbekiston, 1998, 686-b.
11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., O'zbekiston, 1999, 48b.
12. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. 13.00.01. Ped. fan. dok. diss. Avtoreferati, - T., 2003, 44b.
13. Akimova M.K., Kozlova V.T. Individualnost uchahyegosya i individualno'y podxod. M., Znanie, 1992, s.80.
14. Gorskaya G.I., Churakova R.G. Maktabda o'quvtarbiya jarayonini tashkil etish. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashridan tarjima. T.,O'qituvchi, 1990, 216b.

15. D
o'stmurodova O. Ona tili ta'limi yangi pedagogik texnologiyasining mohiyati.
– T.: RTM, 2005. – 36 b.
16. J
o'raev A. Ta'lim texnologiyalari. – Buxoro: Universitet, 2005. – 76 b.
17. Z
aripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari // Xalq
ta'limi. – 1997. – № 2.
18. Ziyodova T.U, Xolmatova U., Jumaniyozova T. O'qituvchi kitobi. T.,2002 yil
136bet.
19. Yo'ldoshev K.,B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim
maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiymetodik asoslari. Ped. fan.
dok. ... dis. avtoreferati. T., 1997-49b.
20. Yo'ldoshev M. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari,
yechimlari // Xalq ta'limi. – 1999. – № 4.
21. Karimov N., Nazarov B., Normatov U., +osimov B., Axmedov S. 9sinf
uchun adabiyot. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, 2nashri.T.
“Ma'naviyat” 2003 yil 158bet.
22. M
irkosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va
takomillashtirish usullari. Ped. fanl. d-ri ... dis...T., 1995, 254 b.
23. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – T. 1992. .
24. M
usta qil fikrlashni shakllantirish omillari //Viloyat ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari (2005 yil 13 dekabr). – Buxoro, 2005. –116 b.
25. Musurmonova O.M. O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T.,
1995.

26. N
e'matov H., /ulomov A. Maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rgatish. – T.: RTM, 1992. – 30 b.
27. O
chilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – +arshi: Nasaf, 2000. – 13 b.
28. O
chilov M. O'qitish usuli – pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti // Xalq ta'limi. – 1999. – № 6.
29. Roziqov O., Og'ae'v S., Mahmudova M., Adizov B. Didaktika. T., Fan, 1997, 256b.
30. R
oziqov O., Og'ae'v S., Mahmudov M., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1999. – b.
31. Saidahmedov N., Abdurahmonov O. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: RTM, 1999. – 27 b.
32. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T.: "Fan", 2005 . 206 b.
33. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2000. – 46 b.

INTERNETDAN OLINGAN ADABIYOTLAR

34. <http://www.bilimdon.uz>
35. <http://www.ziyonet.uz>
36. <http://www.edu.uz>
37. <http://www.local.uz>
38. <http://www.fikr.uz>
39. <http://www.pedagog.uz>

MUNDARIJA

	Kirish.....	3-7
I-BOB.	Pedagogik – psixologik adabiyotlarda ijtimoiy axloq me’yorlari to’g’risida.	
I.1.	Axloq va axloq me’yorlari to’g’risida mutafakkirlari qarashlari.	8-25
I.2.	O’smir yoshlarning axloq me’yorlari to’g’risidagi tushunchalarining mavjudlik xolati.....	25-43
II-BOB.	O’smirlarda axloq me’yorlaridan chetga chiqishni bartaraf etishning shakl va usullari.	
II.1.	O’smirlarda axloq me’yorlaridan chetga chiqishining sabablari.....	44-50

II.2	O'smir yoshdagilarning me'yordan og'ish xolatlarini bartaraf etishning samarali usullar.....	50-63
	Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	64-65
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	66-68